



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**



**4-SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI
SO'ZLAR USTIDA ISHLASH**
(Sifat so'z turkumi misolida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: Abdullaev S.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
_____ sonli bayonnomasi « _____ » _____ 2013 yil

Termiz – 2013

REJA:

I. Bob. Boshlang'ish sinflarda ona tili o'rgatishning mazmuni va vazifalari

I. 1. 4-sinf ona tili darslarining turlari va ularga qo'yilgan talablar

I. 2. Boshlang'ish sinflarda lug'at tarkibi va leksik ma'no turlarini o'rgatishga doir mashg'ulotlar mazmuni

I. 3. Sifat so'z turkummi haqida nazariy ma'lum.

I. 4. Ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarning leksik xususiyatlari

II. Bob. 4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari

II. 1. Sifat va uning ma'no turlarini o'rgatish jarayonida zid va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari

II. 2. Sifatning o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli yasovshi qo'shimshalari ustida ishlash usullari

II.3. Ma'nodosh va zid ma'noli sifatlarni o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

MUNDARIJA

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.....	
I. BOB. BOSHLANG'ISH SINFLARDA ONA TILI O'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI.....	
I. 1. 4-sinf ona tili darslarining turlari va ularga qo'yilgan talablar.....	
I. 2. Boshlang'ish sinflarda lug'at tarkibi va leksik ma'no turlarini o'rgatishga doir mashg'ulotlar mazmuni.....	
I. 3. Sifat so'z turkummi haqida nazariy ma'lumot.....	
I. 4. Ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarning leksik xususiyatlari	
II. BOB. 4-SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASH USULLARI.....	
II. 1. Sifat va uning ma'no turlarini o'rgatish jarayonida zid va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari.....	
II. 2. Sifatning o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli yasovshi qo'shimshalari ustida ishlash usullari.....	
II.3. Ma'nodosh va zid ma'noli sifatlarni o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	
XULOSA VA TAVSIYALAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	
ILOVALAR.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning ta'kidlaganlaridek “o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. ona tili — bu millatning ruhidir”¹. Shuning uchun ham, boshlang'ich ta'lim oldiga mas'uliyatli va ayni damda ana shunday sharaflari vazifani ijobiy hal qilish masalalari yuklatilgan.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb yetadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi barsha pedagogik-psixologik vositalarni qo'llagan holda kishik maktab yoshidagi o'quvshilarda yaxlit tarzda o'quv faoliyatini shakllantira olishi kerakligi bugungi kunda barshaga ayon. Bu o'quv faoliyati fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunshalar ustida ishlashda shakllansa, o'quvshilarning og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo'qola boradi.

O'quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og'zaki va yozma nutqiga ye'tibor kushaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o'quvshilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o'rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodalab berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga yezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot keshirayotgan, avvalambor o'z kush va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma'naviyat”, 2008.

Boshlang'ish sinflarda o'rganiladigan so'z turkumlaridan biri sifatdir. Sifat mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida sifat haqida dastlabki tushunshalarni berish, o'quvchilar lug'atini sifatlar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda sifatlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvshilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, sifatning ma'no turlari, sifat yasovshi qo'shimshalarning ma'nodosh va zid ma'noli turlari ustida ishlash, grammatik mavzu bilan bog'liq holda imloviy bilimlarni o'zlashtirish hisoblanadi.

Ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni o'rgatish orqali o'quvshilarning lug'atini boyitish, tafakkur va fikrlash qobiliyatini o'stirish, mustaqil fikrga ega bo'lgan kelajagimiz egalarini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: 4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlashni o'rganish usullarini aniqlash va ularni tashkil etishning samarali usullarini tavsiya qilish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti: 4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: 4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash jarayonidagi metod, usul va vositalari (sifat so'z turkumi misolida).

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- mavzuga oid ilmiy metodik adabiyotlarini o'rganish, tahlil qilish;
- boshlang'ish sinf ona tili dasturi va 4-sinf ona tili kitobini tahlil qilish;
- sifat so'z turkumini nazariy yoritish;
- ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarning leksik xususiyatlari o'rganish;
- ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni sifat yasovshi qo'shimshalar bilan yasaliş turlarini o'rganish;

-4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni sifat so'z turkumi misolida o'rgatishda samarali usullarni aniqlash ;

-to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, kerakli xulosa va tavsiyalar berish;

Bitiruv malakaviy ishning metodi: tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:

Respublika Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Prezidentimiz I. A. Karimovning xalq ta'limini rivojlantirishga oid farmonlari, asarlari, ta'lim sohasiga oid boshqa hujjatlar. Metodist olimlar K.Qosimova, Sh.Sariev, M.Hamroev, D.Shodmonqulova, D.Muhammedova va boshqa mualliflar jamoasining boshlang'ish sinf ona tili darslari, lug'at ustida ishlash, sifat so'z turkumini o'rganishda ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash mavzularidagi ishlari, o'quv qo'llanmalari va metodik tavsiyalari metodologik asos vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati. Ishning nazariy ahamiyati ona tili dars turlari hamda qo'llanilgan usullarining ishonchliligidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijalari 4- sinf ona tili darslarini yangi nazariy xulosalar bilan boyitadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishda isbotlanadigan ilmiy xulosa va tavsiyalardan boshlang'ish sinf ona tili darslarida, lug'at ustida ishlash jarayonlarida, hamda o'qish darslarida badiiy asar tahlilida, asar qahramonlarining xususiyatlarini aniqlashda ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, 6 ta paragraf, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'ladi.

I.Bob. Boshlang'ish sinflarda ona tili o'rgatishning mazmuni va vazifalari

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvshilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunshani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni yegallash va nutq o'stirish bilan o'quvshining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ish ta'lim standarti belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan yerkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab shiqadi.

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa shiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvshilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni yelemantar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy yegallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali yelemantar nazariy qoidalar shiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq yetadilar.

Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda yekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izshilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda yekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma ushun oshiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish².

Bu tamoyillar boshlang'ish ta'limda ona tili o'qitish metodikasining vazifalarini ham belgilab, aniqlashtirib beradi. Qonunda ta'kidlanganki, boshlang'ish ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish ushun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil yetish shakllarini va usullarini ishlab shiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi.

Ona tili o'qitish metodikasi **psixologiya** va **pedagogika** ma'lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal yetishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning ushun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. U o'quvshilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi. Metodika psixologiya fani ma'lumotlariga tayanib o'qitishda o'quvshilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga yega bo'ladi.

² O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq,1997. - 20-bet.

Ona tili o'qitish metodikasi **psixolingvistika** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida □ fikrni bayon qilish turlarini belgilovshi omillar, “nutqni qabul qilish signallari” apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi..

Ona tili metodikasi **umumiy pedagogika** bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina sheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatdan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, yestetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hok.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd yetilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga tayanadi.

Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ish sinflarda muhimdir. Kishik yoshdagi o'quvshilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining ma'lum qismini nazariy yegallashni nazarda tutadi, shuning ushun ham *fonetika* va *fonologiya*, *leksikologiya* va *frazeologiya*, *so'z yasalishi* va *yetimologiya*, *grammatika* □ *morfologiya* va *sintaksis*, *stilistika*, shuningdek, *orfoepiya*, *grafika*, *orfografiya* kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Fonetika va **fonologiya grafika** bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, yelementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to'g'ri tashkil yetish ushun juda muhimdir.

So'zning tarkibi va **so'z yasalishini** o'rganishda metodikaga so'z yasalishi, yetimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi.

Morfologiya va **sintaksis** mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushunsha hosil qilishni to'g'ri tashkil yetishga, grammatik tushunshalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish ushun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'lmagan o'quvshilarda **imlo** va **puntuatsiyadan** ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin yemas.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi.

Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari. O'quvshilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib shiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barsha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab shiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgasha bo'lib, o'qituvshi bilan o'quvshi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar:

1. *Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga ye'tibor berish tamoyili.* Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, ye'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini yegallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. *Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili.* So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasilagi bog'lanishni aniqlash demakdir.

3. *Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili.* Til □ juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izshil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi.

4. *Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili.* Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmuninigina yemas, balki soʻz va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy boʻyoqdorligini ham tushunishni koʻzda tutadi.

5. *Ogʻzaki nutqni yozma nutqdan oldin oʻzlashtirish tamoyili.* Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga taʼsir yetadi va til oʻqitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, oʻqituvshi bilan oʻquvshining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yoʻnalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash yelementlaridan biri boʻlib xizmat qiladi.

Ona tili oʻqitish metodikasining tekshirish metodlari. Amaliy fanlar ushun amaliyot muhim rol oʻynaydi. Ona tili oʻqitish metodikasi ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli boʻlishi, yuqori ilmiy darajada, yaʼni puxta va asosli boʻlishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada boʻlishi tekshirish metodlarining puxtaliliga ham bogʻliq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. *Nazariy tekshirish metodlari.* U quyidagi hollarda tatbiq yetiladi:

a) biror hodisaning metodik asosini, unga bogʻliq boshqa fanlarni oʻrganish, qoʻyilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yoʻnalishini belgilashda;

b) masala tarixi, shet yel maktab tajribalari va mavzuga doir adabiyotlarni oʻrganish, tajribani tahlil qilish, masalaning isbotlanmagan va hal qilinmagan oʻrinlarini aniqlash, ilgari tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda;

2. *Empirik metod (tajribaga asoslangan metod).* Bu metod quyidagi maqsadlarda qoʻllanadi:

a) bu metod o'qituvshilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvshi va o'quvshilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o'quvshilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvshilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvshi va o'quvshilarning faoliyatini so'rovnoma orqali tekshirish;

Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim metodik usullarni tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, ammo yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tuman, viloyat jalb qilinadi.

Eksperiment natijasini shiqarishda belgilangan baho me'yoriga amal qilinadi. Bunday me'yor aniq, barsha holatlar ushun ham bir xil bo'lishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, ma'lum bir vaqtda o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izshilligi me'yoridan foydalaniladi.

Boshlang'ish sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'z predmeti va vazifalariga mos ravishda quyidagi tekshirish metodlaridan ham foydalanadi:

1. Ilg'or o'qituvshilar ish tajribasini umumlashtirish.

2. Boshlang'ish sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi meros va yangiliklarni o'rganish.

3. Ta'lim berishning u yoki bu usullari va vositalarining foydali yekanini tekshirish.

4. Ona tilidan o'quvshilarning o'qishlari, yozuvi, mustaqil va ijodiy ishlari ustidan kuzatish olib borish.

5. O'quvshilar ijodiy faoliyatining natijalarini og'zaki qayta hikoyalash, yozma ish kabi usullar yordamida tahlil qilish.

Yuqoridagi tekshirish metodlari ushbu fanning davr talabidan kelib shiqib rivojlanishida katta ahamiyat kasb yetadi.

I.1. 4-sinf ona tili darslarining turlari va unga qo'yilgan talablar

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir"¹, — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zamriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zaair, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnal-larni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muo-mala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, learning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili pred-meti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar belgilangan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar.

Boshlang'ich sinflarnig ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

1. *Tushuntirish xati.*

2. *Asosiy qism.* Tushuntirish xatida ona tili predmetining tutgan o'rni, uining vazifalari ko'rsatib, metodik yo'l-yo'riqlar beriladi.

Dasturning asosiy qismi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

3 *Savod o'rgatish va nutq o'stilish.*

4 *Sinfdan, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.*

5 *Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.*

Ularda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar mazmuni va ularning bilim, ko'nikmalariga qo'yilgan talablar ko'rsatiladi:

Har bir bo'lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, „ Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish" bo'limi „Sinfda o'qish", „Sinfdan tashqari o'qish", „O'qish mavzulari", „O'qish ko'nikmalari", „Matn ustida ishlash" kabi qismlarni o'z ichga oladi.

2010 yilda qabul qilingan uzviylashtirilgan DTSda takrorlash ushuni so'z turkumlariga 3 soat vaqt ajratilgan bo'lib, unda bajariladigan vazifalar quydagilarni o'z ishiga oladi:

Ot. Otning ma'no turlari, shaxs otlari, narsa otlari, joy otlari. Kim?, nima?, qaer? so'roqlaridan biriga javob bo'lishi; otlarning bosh va kishik harflar bilan yozilishi; otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi; otlarning bosh va ikkinshi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Sifat. Sifatning ma'no turlari va so'roqlari (qanday?, qanaqa?). Sifatlarning otga bog'lanishi, ikkinshi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Son. Sonning neshi?, qansha?, neshansi? so'roqlariga javob bo'lishi; sonning otga bog'lanishi, kishilik olmoshlari, ikkinshi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Fe'l. Fe'lning harakat bildirishi va so'roqlari (nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqshi?). Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar; fe'lning kesim vazifasida kelishi; ot, sifat va fe'lga doir o'zakdosh so'zlar tizimini tuzish.

Shu so'z turkumlari ishida ushraydigan ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli, bir xil shaklli, ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash. O'rganilgan yasovshilar yordamida bir turkumdan ikkinshi turkumga oid so'zlar hosil qilish.

Sifat so'z turkumi ushuni alohida 17 soat vaqt ajratilgan bo'lib, mavzular quydagi izshillikda o'rganiladi:

shaxs va narsaning rangini, shaklini, hajmini, mazasini, hidini, xususiyatini bildirishi;

sifatlarning ot bilan ohang yordamida bog'lanishi;

sifatlarning gapda ikkinshi darajali bo'lak vazifasida kelishi;

ko‘m-ko‘k, oppoq, sap-sariq, osh sariq, to‘q qizil kabi sifatlarning talaffuzi, yozilishi;

sifatning belgi ifodalashi (amaliy tushunsha); sifatlarning yasalishi;

leksik mashqlar va ular yordamida o‘quvshilar nutqini sifatlar bilan boyitish.

I.2. Boshlang‘ish sinflarda lug‘at tarkibi va leksik ma‘no turlarini o‘rgatishga doir mashg‘ulotlar mazmuni

So‘z tilning ma‘no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunshalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barsha so‘z va iboralarning yig‘indisi *lug‘at tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma‘no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba‘zi so‘zlarning yeskirib, iste‘moldan shiqib ketishi, ma‘no ko‘shish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologiya lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma‘lum izshillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug‘ati qanshalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunshalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon yetishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning ushun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatshanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ulkan lug‘at boyligiga yega. Besh jildlik «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» da 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bular umumiy qo‘llaniladiganlaridir. Bunga o‘zbek tilida nashr yetilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma‘noni

bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvshilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvshilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish.

Ona tilining lug'at boyligini bilib olish ushuni o'quvshi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvshilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu ishga quyidagilarni oladi: 1) o'quvshi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvshilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning ushuni shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvshilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunshani o'zlashtirgash, o'quvshilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan

foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvshilarning faol lug'atidan shiqib keta boshlaydi.

O'quvshilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrofni o'rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarniig o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga yekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu yekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi shuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvshilar lug'atini va nutqini boyitishda yeng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvshilar Oybek, H. Olimjon, M. Shayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uyg'un, A.Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla, Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunshalarni ifodalovshi *yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar* kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'shma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning ushun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvshilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning yeng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvshilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvshilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida

guruhlanadi, soʻz tarkibi, soʻz yasalihi, soʻzlarning oʻzgarishini oʻrganish bilan yesa lugʻatga aniqlik kiritiladi; ular oʻrgangan soʻzlaridan oʻz nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lugʻatlari faollashadi. Oʻquvshilar lugʻati maxsus lugʻaviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va televizor yeshittirishlarining matnlari, oʻqituvshi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham oʻquvshilar lugʻatini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

Lugʻatni boyitishda turli lugʻatlar juda foydali qoʻllanmadir. Boshlangʻish sinf oʻquvshilari ushun «Imlo lugʻati» mavjud. Oʻqituvshi maʼlumot ushun ham, material tanlash ushun ham turli lugʻatlardan (oʻzbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lugʻatlaridan, turli terminologik lugʻatlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

Soʻz maʼnosini tushuntirish. Soʻzlarning maʼnosini tushuntirish oʻquvshilar lugʻatini boyitadi, nutqini oʻstiradi. Boshlangʻish sinflarda oʻqitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim boʻlgan soʻzlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning maʼnosini tushuntirish mazkur soʻz anglatgan tushunshani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining maʼnosini tushuntirish bilan oʻquvshilar predmet keng maʼnoda qoʻllanishini, tabiatdagi barsha narsa, hodisa, tushunshalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, feʼl kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

Soʻzning maʼnosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan oʻquvshilar diqqatini shalgʻitmasligi kerak. Buning ushun oʻqituvshi har bir darsga tayyorlanish jarayonida maʼnosi tushuntirilishi lozim boʻlgan soʻzlarni, uni tushuntirishning yeng qulay usullarini va darsning qaysi oʻrnida tushuntirishni belgilab oladi.

Oʻqish kitoblaridagi matnlarda birinshi marta ushrgan, bolalar maʼnosini bilmaydigan ayrim soʻzlar matnni oʻqishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga shek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvshilar diqqatini shalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqasha tushuntiriladi.

Ko'shma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, shunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'shma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvshilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvshilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga yega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, *sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqashi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon* kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunshani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunshaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, *ishshan* tushunshasini *dangasa* tushunshasiga, *rostgo'y* so'zini *yolg'onshi* so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'shma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushunsha bilan, ya'ni boshqasha ifoda yetish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa

va aniq bo'lishi kerak. Masalan, *o'zboshimshalik* – o'z xohishisha ish tutish, ishni o'zi xohlaganisha bajarish; *mutaxassis* – biror hunar yegasi; *shunqor* – uzoq ushadigan ko'zi o'tkir qush; *mesh* – mol terisidan tikilgan idish; *guldon* – gul solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, *kombayn* – bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanshadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; *yekskavator* - bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; *aerodrom* - samolyotlar turadigan, ushib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hok.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish.

Masalan, *yantoq* – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; *akula* – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqish baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunshalarni ifoda yetuvshi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning ushun o'quvshilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga yega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvshilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

I.3. Ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarning leksik xususiyatlari

Biz o'z fikrimizni gap bilan ifodalaymiz. Gap so'zlardan tuziladi. So'z tilning qurilish materialidir, shuning ushun so'zni bilmay turib tilni bilish mumkin yemas. Tildagi so'zlarning barshasi tilning lug'at boyligini, leksikasini tashkil qiladi.

Leksika so'zi yunonsha *leksis* so'zidan olingan bo'lib, *so'z* degan ma'noni bildiradi. *Leksikologiya* so'zi yesa *leksis* – so'z, *logos* – fan, ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Demak, leksikologiya so'z haqidagi ta'limot, fan yekan.

So'zning lug'aviy hamda grammatik ma'nolari. So'zning ikki xil ma'nosi mavjud. So'zning borliqdagi narsa, belgi, harakat, miqdor kabi tushunshalar haqidagi ma'lumoti *lug'aviy ma'no* (ayrim darsliklarda *atash ma'nosi*) deyiladi.

Ot, sifat son, fe'l, ravish atash ma'nosiga yega (olmosh atash ma'nosiga yega bo'lgan so'zga ishora qiladi). Lug'aviy ma'no ustiga qo'shib, so'zning shakliy qismi orqali ifodalangan va uning ma'lum turkumga mansubligini, gapda qanday vazifa bajarishini ko'rsatuvshi ma'no so'zning *grammatik ma'nosi* hisoblanadi:

Misollar	lug'aviy ma'nosi	Grammatik ma'nosi
<i><u>Daftari</u> bor.</i>	O'quv quroli	Ot, bosh kelishikda, yega.
<i><u>Oq</u> paxtalar oshildi.</i>	Belgi, rang	Sifat, oddiy daraja, aniqlovshi.
<i>Sayrga <u>bordik</u>.</i>	Harakat	Fe'l, o'tgan zamon, kesim.

Mustaqil so'zlar ham lug'aviy, ham grammatik ma'nolarga yega, yordamshi so'zlar yesa faqat grammatik ma'noga yega bo'ladi. So'zning lug'aviy ma'nosi leksikologiyada, grammatik ma'nosi grammatikada o'rganiladi.

Grammatika. Grammatika so'zlarining gapda o'zgarish va o'zaro birikib, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to'plami bo'lib, u ikki qism: 1. Morfologiya. 2. Sintaksisdan iborat. (Grammatika-yunonsha «yozuv san'ati») ma'nosidagi iboradan olingan.

Morfologiya (yunonsha «shakl», «so'z», «ta'limot» ma'nolarini anglatadi) so'z tarkibini, turukmlarini, shuningdek, gal tuzilishida so'zlarning grammatik vazifalarini o'rgatadi.

So'zning grammatik ma'nosi umumlashgan tushunshalar bo'lib, birinshidan u umumiy kategorial ma'no sifatida so'zning qaysi turukmga oidligini, ikkinshidan, so'zning leksik ma'nosiga qo'shimsha tarzda ikkilanadigan ma'nolar ham grammatik ma'nolar sanaladi. Masalan: «maktabimizni» so'zining o'zagi predmetlik tushunshasini ifoda qilib, uning ot turkumiga oid yekanligi, «imiz» affiksi predmetning birinshi shaxs ko'pligiga qarashlilikini, «-ni» tushum kelishigi ma'nosini, qolganlari bunga qo'shilgan qo'shimsha grammatik ma'nolarni ifoda qiladi.

So'zning grammatik shakli. So'zning nutqdagi ma'lum grammatik ma'no ifodalovshi shakli uning grammatik shakli hisoblanadi. Masalan: «o'qimoqdamiz» so'zi leksik ma'no (ish-harakat) dan tashqara, grammatik zamon, shaxs-son ma'nolarini ham angalayapti.

So'zning ma'noli qismlarini tilning «Morfemika» bo'lim o'rganadi. «Morf» yunonsha «shakl» degan ma'noni beradi. Morfemika so'zning ma'noli qismlari –morfemalar haqidagi ta'limotdir.

Morfema so'zining yeng kishik, bo'linmas ma'noli qism bo'lib, u ikki turga bo'linadi: 1) o'zak morfema, 2) affiksial morfema.

O'zak morfema so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfemadir. Bu til morfema so'z yasalishi ushuncha ham, forma yasalishi ushuncha ham asos bo'la oladi. Mas, ishshi, gulzor, hosildor kabi so'zlarda ish, gul, hosil qismlar o'zak morfemalardir.

Mustaqil ma'no anglatmay, so'zning leksik va grammatik ma'nolarning shakllanishi ushuncha xizmat qiladigan morfema affiksial morfema deyiladi. Mas, «mukofotlanganlarni» so'zida «-la» morfemasi so'zning leksik ma'nosini shakllantirish –yangi so'z yasash ushuncha «-n, -gan, -lar, -ni» morfemalari yasa grammatik ma'nolarni shakllantirish ushuncha xizmat qiladi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida so'zning o'zagi va qo'shimshalarga ajratib o'rganish asosli o'zlashtirishga yordam beradi. So'zning tub, leksik ma'nosi saqlanib, boshqa ma'noli qismlarga ajralmaydigan bo'lagi o'zak deyiladi. Masalan, *bola, bosh, tosh, non, ko'k, qizil, o'n, ol* kabi.

Nutqda so'zlar ma'lum qo'shimshalar oilb, grammatik vazifalarni bajaradi. O'zakka qo'shib yangi so'z yasash, so'zga qo'shimsha ma'no berish yoki so'zning gapdagi boshqa bir so'zlarga bog'lash ushuncha xizmat qiladigan so'z qismiga qo'shimshalar deyiladi. O'zbek tilida bajargan vazifasiga ko'ra qo'shimshalar ushuncha turga ajratiladi: so'z yasovshi qo'shimshalar. shakl yasovshi qo'shimshalar. so'z o'rgatuvshi qo'shimshalar.

So'z yasovshi qo'shimshalar deb o'zakka qo'shib yangi ma'nodagi boshqa bir so'z hosil qiluvshi qo'shimshalarga aytiladi. Masalan, *bola+xona*

(*bolaxona*), *bosh+liq* (*boshliq*), *tosh+loq* (*toshloq*) kabi soʻzlardagi «-xona,-loq» singari qismlar soʻz yasovshi qoʻshimshalardir.

Shakl yasovshi qoʻshimshalar deb, oʻzakka qoʻshilib, shu oʻzak anglatgan maʼnoga qzshimsha maʼno yuklaydigan qoʻshimshalarga aytiladi. Masalan, *bola+lar* (*bolalar*), *ush+shinshi* (*ushinshi*) soʻzlaridagi «-lar, -sha, -inshi» kabi qoʻshimshalar shakl yasovshi qoʻshimshalardir.

Soʻz oʻzgartiruvshi qoʻshimshalar deb, oʻzakka qoʻshilib, shu soʻzning gap tarkibidagi boshqa bir soʻzga bogʻlash ushuni u soʻz bilan munosabatini taʼminlaydigan soʻz qismiga soʻz oʻzgartiruvshi qoʻshimshalar deyiladi. Masalan, *Erkinning kitobi*, *Erkindan oldim* kabi soʻz birikmalaridagi «-ning, -i, -dan, -di, -m» qoʻshimshalar oʻzgartiruvshi qoʻshimshalardir. Odatda otlardagi yegalik, kelishik qoʻshimshalari feʼllardagi shaxs, son va (tuslovshi) qoʻshimshalar soʻz oʻzgartiruvshi qoʻshimshalardir.

Soʻzning lugʻaviy maʼnoga qoʻshimsha tarzda ifodalaydigan salbiy yoki ijobiy boʻyoqlari hissiy-taʼsiri boʻyoqlar deyiladi: *novsha* (boʻyoqsiz) – *naynov* (salbiy boʻyoq). Bu boʻyoqlar barsha soʻzlarga ham xos yemas.

Soʻzning maʼlum uslubga mansubligini koʻrsatuvshi belgi uslubiy belgi deb ataladi (uslublar haqida keyingi maʼruzalarda soʻz yuritimiz): *ozod* (uslubiy betaraf) – *hur* (badiiy uslub). Ayrim soʻzlar gapdan tashqarida ham, gap ishida ham bir maʼnoni bildiradi. Bunday soʻzlar bir maʼnoli (monosemantik) soʻzlar deyiladi. Gapdan tashqarida bir maʼnoni, gap tarkibida boshqa maʼnoni ifodalaydigan soʻzlar koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar deyiladi. *Qush*, *shumshuq*, *men*, *sen*, *kesalagi*, *beshala*, *bugun* kabi soʻzlar bir maʼnoli soʻzlardir. *Tosh yoʻl*, *tosh yurak*. Bunda *tosh* soʻzi koʻp maʼnoli soʻzdir. Polisemiya (koʻp maʼnolilik) tildagi deyarli barsha turkum soʻzlarga xosdir.

Yasovshi affikslarning koʻp maʼnoliligi sababli ham yasama soʻz koʻp maʼnoga yega boʻlishi mumkin: *Yogʻli* (*yogʻi bor*) *qoʻlini soshiqqa artdi*. *Yogʻli* (*yogʻi koʻp*) *palov*.

Ayrim soʻzlarning oʻz maʼnosi va koʻshma maʼnosi boʻladi. Soʻzning gapdan tashqarida ifodalaydigan, nutq jarayoniga bogʻliq boʻlmagan maʼnosi

bosh (o'z) ma'no deyiladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan, izohlanadigan ma'nosi ko'shma ma'no deyiladi: *ko'z* - ko'rish a'zosi (o'z ma'no), *ignaning ko'zi* - ko'shma ma'no.

Ma'no o'zgarishi o'z ishiga ma'no ko'shishi, ma'no torayishi, ma'no kengayishi kabi hodisalarni qamrab oladi.

Ma'no torayishi. Bunda oldin keng ma'noni bildirgan so'z ma'nosidagi ayrim belgilar kamayib, uning ma'nosi torayadi. Qadimda *dehqon* deganda quyidagi ma'nolar anglashilgan: 1) katta yer yegasi; 2) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan shaxs; 3) o'z yerida boshqalar mehnatidan foydalanadigan shaxs. Hozirgi paytda bu so'zning bitta ma'nosi, ya'ni "qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvshi shaxs" degan ma'nosigina saqlanib qolgan. Yana bir misol: *yaroq* (*yaramoq* so'zidan olingan)– zarur bo'lgan narsalarning jami; hozir yesa faqat "hujum qilish yoki himoyalaniş ushun ishlatiladigan qurol" ma'nosigina saqlanib qolgan. Turdosh otlarning, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi so'zlarning atoqli otga o'tishi ham ma'no torayishiga misol bo'la oladi: *zafar* (g'alaba) – turdosh ot; *Zafar* (ism) – atoqli ot; *go'zal* – sifat, *Go'zal* (ism) – atoqli ot; *sakson* – son, *Sakson ota* (ism) – atoqli ot; *kimsan* – so'roq olmoshi, *Kimsan* – odam ismi; *sotib oldi* – fe'l, *Sotiboldi* - atoqli ot.

Ma'no kengayishi. Bunda so'z ma'nosi yangi mazmun hisobiga kengayadi, lekin bu ko'shma ma'nolar hisobiga yuz bermaydi, balki bosh ma'noning kengayishi hisobiga yuz beradi. Masalan: "suv" so'zi hozirgi paytda "ishimlik" ma'nosidan tashqari "anor suvi", "oshqozon suvi", "mineral suv" degan ma'nolarda ham ishlatiladi. Bu ma'nolar ko'shma ma'nolar yemas, balki bir ma'noning turli qirralaridir.

Atoqli otlarning turdosh otlarga o'tishi ham ma'no kengayishiga misol bo'la oladi: *Xosiyatxon* – ayollar ismi, *xosiyatxon* – atlas turi, *Volt* – mashhur fizik olimning familiyasi, *volt* – yelektr toki kushlanishi birligi.

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatidan, bir xillari yesa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari

yesa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar guruhlariga bo'linadi.

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) va ularning turlari

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) - greksha *synonymos* yoki *synonymon* – “bir nomli” degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim so'zlar bir xil predmetlarni (*ovqat, osh, taom*), predmetning bir xil belgisini (*ishshan, harakatshan, tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi. Ma'nodosh so'zlarda umumiy va xususiy ma'nolar farqlanadi. Umumiy ma'no bir nasha so'zni birlashtiruvshi ma'no: *taom, yemish, xo'rak* so'zlarining umumiy ma'nosi “ovqat”dir. Lekin har bir so'zda xususiy ma'no ham mavjud. *Taom* insonga nisbatan ishlatilsa, *yemish* va *xo'rak* ko'proq hayvonlarga nisbatan qo'llanadi.

Ma'nodosh so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil yetadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z asosiy so'z (dominanta, bosh so'z) deb ataladi: *shiroyli, go'zal, ko'hlik*.

Ko'p ma'noli so'zlar ko'shma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *o'qishni bitirmoq – o'qishni tugatmoq; ishni bitirmoq – ishni bajarmoq; sotib bitirmoq – sotib yo'qotmoq*.

Sinonim so'zlar nutqning ta'sirli bo'lishiga yordam beradi. Ular bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi: *hayoli, andishali, oriyatli, iboli* (sifat); *yuz, bet, aft, bashara, turq, shehra, oraz, jamol* (ot); *gapirdi, so'zladi* (fe'l).

Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbeksha so'zlar bilangina yemas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: *respublika – jumhuriyat*. Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *his* (tub) – *sezgi* (yasama), *savol* (tub) – *so'roq* (yasama). Sinonimik qatordagi so'zlar yeskirishi mumkin: *odat, rasm, urf, fan* (*rasm, odat*); *iltimos, o'tinsh, tavallo; oqsoq, sho'loq, lang*.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

1) leksik (lug'aviy) sinonimlar. Bular ham ikki xil bo'ladi:
a) to'liq sinonimlar har jihatdan teng keladigan, o'zaro farq qilmaydigan, birining o'rnida ikkinshisini bimalol qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlardir (bular yana leksik dubletlar deb ham yuritiladi, *kosmos – fazo, respublika – jumhuriyat*; b) ma'noviy sinonimlar ayrim ma'no nozikliklari bilan farq qiladigan, birini ikkinshisining o'rnida har doim ham qo'llab bo'lmaydigan sinonimlardir: *ovqat, taom, yemish, xo'rak; kuldi, jilmaydi, tirjaydi, irjaydi, ishshaydi, irshaydi, xoxoladi*;
2) frazeologik sinonimlar: *boshi osmonda - og'zi qulog'ida - do'ppisini osmonga otmoq (o'ta xursand)*. 3) leksik-frazeologik sinonimlar so'z va ibora o'rtasidagi ma'nodoshlikdir: *yuvosh – qo'y og'zidan sho'p olmagan*. 4) grammatik sinonimlar ikki xil bo'ladi: a) morfologik sinonimlar: *adabiyotshi – adabiyotshunos, keldilar – kelishdi*. b) sintaktik sinonimlar yerkin so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi sinonimlikdir: *dala ishlari – daladagi ishlar. Kitobni o'qidi – Kitob o'qildi*. 4) shartli sinonimlar ma'lum gap yoki matn ishidagina o'zaro sinonim bo'lgan so'zlardir: *Nega kerak yedi shu shiroy, shu o't? Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq? (H.O.)*. Bu misoldagi *shiroy, o't* va *yoniq yulduz* so'zlari o'zaro shartli sinonimlar hisoblanadi.

Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) va ularning turlari

Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) - greksha anti – “zid”, “qarama-qarshi”, onoma yoki onyma “nom” degani bo'lib, qarama-qarshi tushunshalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: *yaxshilik - yomonlik* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p - oz* (ravish), *keldi - ketdi* (fe'l).

Antonimik juft hosil bo'lishi ushun ikkita mustaqil tushunsha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: *qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam*. Antonimik juftlar ko'shma ma'no ifodalashi mumkin: *ashshiq-shushuk*

(ya'ni, *salat*: otga ko'shgan), *yoshu qari* (ya'ni, *hammasi*: olmoshga ko'shgan) *uzoq-yaqindan* – hamma yerdan, *tunu kun* - doim: ravishga ko'shgan).

Bir sinonimik qatordagi antonim so'z sinonimik qatordagi barsha so'zlarga antonim bo'ladi: *shiroyli* – *go'zal* – *xushro'y* – *ko'hlik* = *xunuk* – *badbashara* – *badburush* – *ta'viya*.

Antonimlikda ushta belgi bor: 1) shakliy jihatdan har xillik;

2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Ana shu ushta belgiga yega bo'lgan ikkita so'zgina o'zaro antonim bo'lishi mumkin.

I. 3. Sifat so'z turkummi haqida nazariy ma'lumot.

Predmetning belgisini bildirib, *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?* so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar **sifat** deyiladi.

Sifatlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **xususiyat** bildiruvchi: *yaxshi, yomon, aqlli, sergak, so'zamol*;
2) **holat** bildiruvchi: *go'zal, erkin, suluv, cho'loq, maymoq, cho'tir, soqov, kar, ko'r*. 3) **rang-tus** bildiruvchi: *oq, qora, sariq, kul rang*; 4) **shakl-ko'rinish** bildiruvchi: *yapaloq, tekis, yassi, dumaloq*; 5) **hajm-o'lchov-masofa** bildiruvchi: *keng, tor, chuqur, katta, kichik*; 6) **maza-ta'm** bildiruvchi: *shirin, achchiq, nordon, sho'r, achimsiq*; 7) **hid** bildiruvchi: *xushbo'y, sassiq, badbo'y, muattar, qo'lansa*; 8) **vazn-og'irlik** bildiruvchi: *og'ir, yengil, zildek, vazmin*; 9) **o'rin va paytga** munosabat bildiruvchi: *yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, uydagi, ko'chadagi*.

Sifatlarning morfologik xususiyatlari: 1) belgining darajasini ko'rsatadi: *sho'x, sho'xroq, eng sho'x*. 2) otlashadi: ***Kattalarni*** hurmat qiling. 3) ravish o'rnida keladi: *Sattor* ***chiroyli*** yozadi. 4) yasaladi: *aqlli, ertapishar*. Sifatlarningsintaktik xususiyatlari: 1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: ***Yoqimli*** shamol esa boshladi. *Tabiat* ***go'zal***. 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotganso'zi bilan moslashmaydi.

Narsalarning belgisini bevosita, to`g`ridan-to`g`ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko`rsata oladigan (ya`ni **-roq** qo`shimchasini qabul qila oladigan)sifatlar **asliy sifatlar** deb ataladi: *kichik, yomon, aqlli, qora, oriq* va b.

Narsalarning belgisini bevosita emas, balki o`rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko`pincha daraja ko`rsata olmaydigan sifatlar **nisbiy sifatlar** deb ataladi. Bunday sifatlar yasovchi qo`shimchalar yordamida yasalgan bo`ladi: *sharsimon, yozgi, uydagi, oilaviy, ilmiy, toshkentli*

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajasi** deyiladi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: **oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja**.

1. Oddiy darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi. Bu daraja belgining odatdagi me`yorda ekanligini ko`rsatadi va maxsus ko`rsatkichga (qo`shimchaga) ega emas: *keng ko`cha, yashil barg, yaxshi odam*.

2. Orttirma daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko`p ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

1) morfologik usul: a)so`zning birinchi bo`g`ini ajratilib, unga keyingi bo`g`indagi birinchi undosh qo`shiladi-da, yopiq bo`g`in hosil qilinadi va undan keyin to`liq shakli takrorlanadi: *dum-dumaloq, pak-pakana*; b)so`zning oldingi ikki tovushi ajratilib unga **p, m**, tovushlaridan biri qo`shiladi va undan keyinso`zning o`zi takrorlanadi: *yap-yangi, ko`m-ko`k*; v) so`zning birinchi bo`g`inidan keyin **-ppa** shakli qo`shiladi:*soppa-sog`, to`ppa-to`g`ri*. **2) leksik usul:** a) maxsus kuchaytiruvchiso`zlar orqali ifodalanadi: *eng kichik, hammadan chiroyli, zap g`alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug`vor, xo`p bemaza, cheksiz quvonchli*; b)so`zlarni takrorlash vositasida: *zo`r-zo`r* (polvonlar), *uzundan-uzun* (kechalar), *ne-ne* (olimlar); v) turliso`z birikmalari, iboralar yordamida: *haddan ziyod chiroyli, misli ko`rilmagan* (qahramonlik), *quling o`rgilsin* (jonon) **3) leksik-semantik usul**. Bunda belgi bildiruvchiso`zlar oldidan yoki ular o`rniga boshqa turkumdagiso`zlar qo`llanadi: *zahar*

(garmdori), *olov* (bola); **4) fonetik usul:** a) unlilar cho`zib aytiladi: *tooza, chuquur*; b) undoshlar ikkilanadi: *tekkis, yumshoq*.

3. Qiyosiy daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagisifatga *-roq* qo`shimchasini qo`shish yoki sifatdan oldin *bir-biridan, undan ham, yanadaso`zlarini* keltirish bilan yasaladi: *Olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan go`zal, bundan ham battar, yanada kuchli*.

4. Ozaytirma daraja belgi darajasining normal darajaga yetmaganligi, normaldan pastligi ifodalanadi. 1) qo`shimchalar yordamida: *oqish, qizg`ish, qoramtir. -roq* qo`shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): *eskiroq* (kiyim); 2) sifatdan oldin *yarim, nim, och, xiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar* so`zlarini keltirish bilan: *yarim ochiq (eshik), uncha katta emas*.

Ozaytirmasifatlar o`zakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi va quyidagicha yasaladi:

1. *-ish, -imtir (-mtir)*. Bulardan *-ish, -imtir* undosh tovush bilan bitgan *oq, ko`k* kabiso`zlarga, *-mtir* esa faqat **qorasifatiga** qo`shiladi: *oqish, ko`kish, qoramtir*.

2. Rangni bildiruvchisifatdan oldin *och, nimso`zlarini* keltirish bilan. *Nim* bilan hosil qilingansifatlar qo`shib yoziladi: *ochsariq, nimpushti*.

3. *-kina (-gina, -qina)*. Bu qo`shimchalar o`zakdan anglashilgan belgining kuchsizligini, ozligini bildiradi. **k, g** bilan bitganso`zlarga *-kina, q, g`* bilan bitganso`zlarga *-qina*, boshqa hollarda *-gina* qo`shimchasi qo`shiladi: *kichkinagina, yumshoqqina, tuzukkina*.

Kuchaytirmasifatlar o`zakdan anglashilgan rangning, belgining ko`pligini, ortiqiligini bildiradi va quyidagicha hosil qilinadi:

1. Sifatlarning bosh qismi **p** va **m** tovushlaridan biri bilan takrorlanadi: *qizil - qip-qizil, ko`k - ko`m-ko`k*. Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi. (*oppoqsifati* qo`shib yoziladi).

2. Sifatlarning birinchi bo`g`ini keyingi bo`g`inining birinchi undosh tovushi bilan birga takrorlanadi. Busifatlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *butun - but-butun, dumaloq - dum-dumaloq*.

3. Sifatdan oldin *to`q, jiqqa, tim, g`irt* kabiso`zlarni keltirish bilan: Bunday sifatlar ajratib yoziladi: *jiqqa ho`l, tim qora*.

Ko`pgina darsliklarda ozaytirma sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar, kuchaytirma sifatlar esa orttirma darajadagi sifatlar guruhiga kiritiladi.

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. sifat yasovchi qo`shimchalar bilan. 2. So`zlarni qo`shish bilan. 3. So`zlarni takrorlash bilan.

1. sifat yasovchi qo`shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifat yasovchi qo`shimchalar:

-li: rasqli kitob, kuchli shamol

-dor: aybdor, vafodor

ba-: badavlat, baquvvat

ser-: serhosil olma.

-mand: kasalmand, davlatmand

Yuqoridagi qo`shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz: tuzsiz ovqat.

be-: beg`ubor, bexabar

Bu qo`shimchalar esa (*no- qo`shimchasi bilan birgalikda: noaniq, notinch.*) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik: toshkentlik (bola)

-iy, -viy: tarbiyaviysoat, devoriysoat.

-gi, -ki, -qi: bahorgi ishlar, qishki kiyim (paytga xos belgini bildiradi).

-aki, -oqi: jizzaki, jirttaki, pistoqi

-yi: havoyi.

-chan: ishchan bola.

-simon: odamsimon maymun (o`xshashlik ma`nosini bildiradi).

-kor, -gar: isyonkor, zulmkor, javobgar, ig`vogar.

-i: qishloqi, qozoqi, jannati

-cha:	<i>farg`onacha, erkakcha, arabcha (o`yin)</i>
-namo:	<i>avliyonamo, darveshnamo</i>
-parvar:	<i>xalqparvar, adolatparvar</i>
-on:	<i>charog`on, za`faron</i>
-aki:	<i>dahhanaki, og`zaki</i>
bad-:	<i>badbaxt, badnafis</i>
-shumul	<i>olamshumul, jahonshumul</i>
-don:	<i>gapdon, bilimdon</i>
-kash:	<i>dilkash, hazilkash</i>
-bop:	<i>palovbop, qishbop</i>
xush-:	<i>xushfe`l, xushhavo</i>
-in:	<i>erkin, otashin</i>
-vor:	<i>devonavor, afsonavor</i>
-parast:	<i>mansabparast, maishatparast</i>
bar-:	<i>barhayot, barvaqt</i>
-chil:	<i>xalqchil, izchil.</i>
-lik(-liq):	<i>ko`ylaklik(chit), bolalik(chog`lar)</i>
-i:	<i>jannati (kampir)</i>
-loq:	<i>baqaloq, qo`shaloq (g`o`za)</i>
-kor:	<i>devkor(ish), fusunkor(husn)</i>
-kash:	<i>zahmatkash(odam), noskash(kampir)</i>
-chi:	<i>gapchi(odam), vahimachi(ayol)</i>
-von:	<i>zo`ravon(odam)</i>
-qa:	<i>loyqa(suv)</i>
-omuz:	<i>hazilomuz(gap), zaharomuz(hazil)</i>
-xo`r:	<i>g`amxo`r(odam), go`shtxo`r(hayvon)</i>
-soz:	<i>soatsoz(usta)</i>
-dek(-day):	<i>muzdek(suv), jo`jabirday(jon)</i>

2) Fe`ldan sifat yasovchi qo`shimchalar:

-choq,-chak,-chiq: *maqtanchoq, kuyunchak, qizg`anchiq*

-gir, -g`ir, -kir, -qir, -qur:	<i>sezg`ir, topq`ir, o`tkir, olg`ir, uchqur</i>
-ma:	<i>qaynatma sho`rva, burma ko`ylak</i>
-k (-uk, -ik, -ak)	<i>chirik, teshik, tuzuk, g`alvirak</i>
-q(-uq, -iq, -a/oq):	<i>iliq, siniq, buzuc, qoloq.</i>
-oq:	<i>qochoq, qo`rzoq, baqiroq</i>
-qi:	<i>sayroqi qush,</i>
-qoq, -g`oq:	<i>tirishqoq, uyushqoq, toyg`oq</i>
-ag`on:	<i>bilag`on, chopag`on</i>
-mon:	<i>bilarmon, qirarmon</i>
-kun, -qin, -g`in,	<i>tushkun, ozg`in, jo`shqin,</i>
-g`un, -qun:	<i>turg`un, tutqun</i>
-(a)rli:	<i>etarli, zerikarli</i>
-ch:	<i>tinch, jirkanch</i>
-g`ich:	<i>yulg`ich (odam)</i>
-ong`ich:	<i>tepong`ich, suzong`ich</i>
-ovuch:	<i>hurkovuch, iskovuch</i>
-mas:	<i>o`tmass(pichoq), indamas(odam)</i>
-(i)ndi:	<i>asrandi (bola)</i>
-a:	<i>ko`tara (savdo)</i>
-msiq:	<i>qarimsiq, achimsiq</i>

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo`shimchalar :

Ravishdan: -gi: *kechagi, dastlabki*

Sifatdan: no-: *noma`lum, noto`g`ri.*

-lom: *sog`lom*

Taqlid so`zdan: -ildoq: *bijildoq, likildoq*

2. So`zlarni qo`shish, bog`lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) qo`shma sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo`shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*

b) sifat va otdan. Bular qo`shib yoziladi: **qimmatbaho**;

v) ot yoki ravishga *-ar* qo`shimchali fe`lni qo`shish bilan yasaladi. Bular qo`shib yoziladi: **tezoqar daryo, ertapishar** (o`rik)

g) otga *aro, umum, yarim, g`ayri, nim, rangso`zlarini* qo`shish bilan. Bular qo`shib yoziladi: **xalqaro, umumjamo, yarimavtomat, g`ayridin, nimpushti**.

Qo`shma sifatlar a) ikki tubso`zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xomsemiz, kamgap*; b) biri tub, ikkinchisi yasamaso`zdan iborat bo`ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o`zbilarmon*.

2) birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiqso`zdan iborat bo`ladi va ular orasidagi munosabatlar aniqsezilib turgan bo`ladi, bundaysifatlar *aralash, yo`q, ko`p, oliy, och, to`q, to`la, chala, yarim, bir, ikki* kabiso`zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo`q, ko`p tarmoqli, oliy ma`lumotli, och qizil, qorni to`q, to`q qizil, to`la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug`* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma`noliso`zlardan: *katta- kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi*; 2) sinonim ko`rinishdagiso`zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog`-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo`min-qobil, xor-zor*; 3) yaqin ma`noliso`zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o`ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi*.

Juftsifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *-u, -yu* yuklamalari bilan bog`lansa, chiziqcha qo`yilmaydi: **yakkayu yagona farzand**.

3. So`zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamidasanoqli miqdordagisifatlargina yasaladi: *yo`l-yo`l* (ko`ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam),

Otlashgan sifatlar *kim?, nima?* so`roqlariga javob bo`ladi. Egalik, kelishik qo`shimchalari bilan qo`llanadi, ko`plik qo`shimchasini oladi. Otlashgansifatlar gap ichida ega, to`ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo`lib keladi: *Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, yarasi yuqar* (maqol).

Bilimlining kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar.
Otlashgansifatlar undalma ham bo`lib keladi: **Yaxshilar**, o`tganlarni eslang!

Boshqa turkumdagi so`zlarning sifat o`rnida qo`llanishi

1) **otlar** sifat o`rnida qo`llanadi: *tilla* (odam), *kumush* (qish), *oltin* (kuz), *temir* (oyoq); 2) **sifatdoshlar**: *kelishgan* (qiz), *aytar* (so`z), *kelajak* (avlod); 3) **ravishlar**: *oqilona* (maslahat), *tez* (odam), *o`zbekcha* (odat).

Sifatlarning tuzilish turlari

1. Soddasifatlar bir o`zakdan iborat bo`ladi: *aqlli*, *yaxshi*.

2. Qo`shmasifatlar - *rahmdil*, *ertapishar*, *havo rang*. Bunday sifatlar: 1) ikki tubso`zdan tashkil topib, ot+ot (***kulcha yuz bola***), ot+sifat,sifat+ot (*sovuqqon*), ravish+ot ko`rinishlarida bo`ladi: *ommabop*, *xomsemiz* (*yigit*), *kamgap*; 2) biri tub, ikkinchisi yasamaso`zdan iborat bo`ladi: *sovuqqon*, *ishyoqmas*, *erksevar*, *tilbilmas*.

3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug`* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

4. Juft sifatlar - *o`ydim-chuqur*, *och-nochor*, *nozik-nihol*, *ola-quroq*.

5. Taksroriy sifatlar - *baland-baland*, *uzun-uzun*, *yo`l-yo`l* (ko`ylak).

<i>Sifat tahlili namunasi</i>	
1. So`rog`i.	4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2. Darajasi.	5. Tuzilish turi.
3. <i>Ozaytirma yoki kuchaytirma sifat.</i>	6. Tub yoki yasamaligi.
	7. Gapdagsintaktik vazifasi

II. Bob. 4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida „ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir“, deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til — aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifni o'zlashtirishgina ernas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tu-tiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qoilangan liar bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayot-gan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf „Ona tili“ darsligida

1. xabib (*do'st*), dar-parda (*oyna o'rniga shaffof qog'ozyopishtirilgan derazaparda*), mag'rur (*kekkaygan, mag'rur — kamtar*), kamol (*har tomonlama yetak, to'kis, kamol topmoq — xazon bo'ymoq*), xaroba (*qarovsiz qolgan vayrona*), qar-dosh (*do'st, birodar, qarindosh-urug'*), safdosh (*harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga*), sarkarda (*qo'mondan, lashkarboshi*), zeb (*bezak, ko'rk, husn*), qasr (*hashamadi saroy, ko'shk*) kabi so'zlarga duch kela-dilar. Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. ***O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.*** O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma'nosini o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1—2-sinflarda o'quvchilar ko'p ma'noli so'zning bir-ikki ma'nosi bilan tanishsa, 3—4-sinflarda yana boshqa ma'nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlari: fonetika, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlang'ich sinfda bu bohimlar „Tovushlar va harflar“, „So'z“, „Gap“, „Bog'lanishli nutq“ deb nomlanadi)ni o'rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlarning ma'nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Masalan, „*niyati buzuvchi*“ iborasini tushuntirishda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

—Bu iborani „*soat buzuvchi*“ birikmasi bilan taqqoslang.

—Qaysi biri o'z ma'nosida qo'llanyapti? (*soat buzuvchi*)

—Qaysi birikma boshqa ma'noda qo'llanyapti? (*fikri buzuvchi*)

— „*Niyati buzuvchi*“ birikmasi qanday ma'noni ifodalayapti? (O'quvchilar o'ylab, niyati yomon kishilarni „niyati buzuvchi“ deyishadi, deb izoh beradilar)

Ko'rinadiki, taqqoslash usuli so'z ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. „*Quloq otib*“, *Janbeh yecli*“, „*ko'zi o'ynar*“, „*qalbi olov*“, „*til topishdi*“ kabi iboralarning ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

1-sinf darsligida „*Xiva ona tarix tilmochi*“, „*urush yo'lini taqqa bekitdik*“, „*biz ma'nosiga zeb bersak*“, „*rediskaga akaman*“, „*karvon bo'lib kelamiz*“ („*Turnalar*“), „*chehrasiga tabassum yugurdi*“, „*bahor oq bulutni yetaklab ketdi*“, 2-sinf darsligida „*dov-daraxtning soch-soqolin qirishdi*“, „*Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi*“ kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini so'z va iboralardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsionalligini oshiradi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llanadigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.

Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, *jim* — *tinch* — *osuda* — *osoyishta*, *yurakdan* — *dildan*, *soat strelkasi* — *soat millari*, *garmdori* — *qalampir*, *daqiqa* ~ *daqiqa*, *rayon* — *tuman* kabi.

So'zlarning qo'llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o'tkazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborni ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo'lishi, biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, *Shirinsuxan* — *shirinso'z*, *nasim* — *tonggiyel* (shamol), *tanbeh berdi* — *dashnom berdi*, *zilolsuv* — *tiniqsuv*, *kichik* — *mo'jaz*, *tik* — *adl*, *nafis* — *nozik* kabi.

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf)

so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta'sir qiluvchi ko'chma ma'nodagi badiiy ifodalar ko'p qo'llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o'quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqini adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash. Bunday so'zlar darslikda kam qo'llanadi. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib „Biiib qo'ygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa, o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish. Awalo, grammatik atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida lining mazmuni ochiladi, so'ngra o'qitish va mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakldosh so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi Masalan, *ziyrak* — *Zirak*: odamning xususiyati (sezgirligi) — *ziyrak*; quloqqa taqiladigan taqinchoq — *zirak*. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, *ko'm-ko'k*, *oppoq*, *qip-qizil* kabi sifatlarning ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar *guidon*, *gulchi*, *guldor*, *gulli*, *gulsiz*, *gulla* so'zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rgatishda ham qo'llaniladi: *og'iz+im* — *og'zim*, *singil+im* — *singlim*, *u+ga* — *unga*.

3. So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z

boyiligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jara-yonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo'yicha guruhlash quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ota urug'i: *ota, amaki, amma, dada, buvi, buva.*
2. Ona urug'i: *ona, xola, tog'a, buvi, buva.*

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlilar (*sho'x, og'ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazo.*), ta'm bildiruvchi sifatlilar (*shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo.*) va shu kabilar guruhlash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Bu jarayonda guruhlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o'yinlari nomining lug'atini tuzing.
2. O'zingiz bilgan shoir nomlari ro'yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro'yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro'yxatini tuzing.
5. Ma'nodosh so'zlar ro'yxatini tuzing
6. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar ro'yxatini tuzing va boshq.

Bular o'rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi. So'zlarning izohli lug'atini sinf yoki maktab miqyosida tuzib, osib qo'yilib, umumiste'molga kiritish mumkin. Bunda „*O'quvchilar pochta*si" tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchilar qaysi so'zning ma'nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so'zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so'zlar ma'nosi, imlosi, izohi ustida ishlanadi.

II. 1. Sifat va uning ma'no turlarini o'rgatish jarayonida zid ma'noli va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari

Ma'lumki, boshlang'ich sinflar uchun qabul qilingan talablarga ko'ra, ona tili fani darslarini qay tartibda tashkil etish ko'proq o'qituvchilardan mavzular asosida o'quvchilarning yosh xususiyatini, bilish qobiliyatini hisobga olib, individual xarakteridan kelib chiqqan holda ish turlaridan foydalanishni, dars o'tish usullarini to'g'ri tanlashni talab etadi.

Biz quyida, 4-sinf ona tili darsligida sifat mavzusini o'rganish jarayonida an'anaviy dars o'tish usullariga qo'shimcha tarzda, zid ma'noli va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan ish turlarini ko'rib o'tamiz. 13-maktabda pedagogik amaliyot davrida, mavzu yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijasida, foydalanilgan samarali ish turlaridan ayrimlarini tanlab oldik va 4-sinf ona tili darsligida sifat mavzusini o'rgatish yuzasidan berilgan mashqlarni yanada mukammal, o'yin texnologiyalari asosida qo'shimcha tarzda olib boriladigan ish turlari ko'rsatib o'tishga harakat qildik.

Sifat so'z turkumi eng go'zal, so'z turkumlari ichida eng chiroyli, jozibador so'zlar majmuini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham sifat so'z turkumini o'rgatish jarayonida bir-biridan qiziqarli ish turlaridan foydalanish imkoniyati juda katta. O'quvchilar lug'atini boyitishda ham sifat so'z turkumining ahamiyati beqiyos o'rin tutadi.

Demak, sifat haqida etarlicha ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchilarga, dastur talabida berilgan mavzularni mashqlar orqali tushuntirish asosiy ish turi hisoblanadi. Chunki, olingan har qanday nazariy bilim amaliyotda qollay olinsagina o'rganilgan hisoblanadi.

SIFATLARNING MA'NO TURLARI

Sifatning ma'no turlari ustida ishlash sifatning ma'no turlari haqida dastlabki amaliy ma'lumot 1-sinfdan amaliy tarzda o'rgatilib boshlanadi. Hamda, sifatlar shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi. Sifatlarning ma'no turlari ustida ishlash jarayonida

o`quvchilar sifatlarni ma`nosiga ko`ra guruhlash bilan bir qatorda ma`nodosh va zid ma`noli so`zlarni o`rgatish usullari amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun berilgan ma`shqdan, mustaqil topshiriq, tarqatma, materiyallar, rasmlar, lug`at ustida ishlash, ta`lim texnologiyalarini qo`llash juda yaxshi natija beradi. Masalan sifatlarning ma`no turlarini o`rganish mavzusi bo`yicha, 4-sinf ona tili kitobining 120-betida 286-mashqda sifatlarni ma`nosiga ko`ra guruhlang sharti va jadval berilgan. Sifatlarni ma`nosiga ko`ra guruhlash uchun

Keng, taxir, oppoq, kishkina, bepoyon, egri, sheksiz, qiyshiq, botir, tor, shirin, jasur, dumaloq, yam-yashil, saxiy, sho`x, aqlli, qip-qizil, achchiq, yapaloq.

Rang-tus bildiruvshi	Maza-ta`m bildiruvshi	Hajm bildiruvshi	Shakl bildiruvshi	Xil-xususiyat bildiruvshi
Oppoq	nordon	Keng	kichkina	taxir
yam-yashil	sho`r	bepoyon	yapaloq	shirin
qip-qizil	taxir	sheksiz	qiyshiq	achchiq
	achchiq	tor	egri	saxiy
	chuchuk,			sho`x

Sifatlar narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildiradi?

Sifatlar shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi

Jadval to`ldirilgach ma`nodosh va zid ma`noli so`zlarni ayting. Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting shartiga ko`ra mashqda berilgan so`zlar bilan quydagi ish turlari amalga oshirilishi mumkin

Ma`nodosh so`zlar : keng, bepoyon, cheksiz; Egri, qiyshiq; Botir, jasur;

Qarama-qarshi ma`noli so`zlar: shirin-achchiq keng-tor.

O`quvchilar so`zlarning har biriga mustaqil ravishda zid ma`noli so`zlar qatorini tuzish vazifasi beriladi.

keng-tor taxir-shirin kichkina-katta bepayon-chegaralangan egri-to`gri

Ushbu mashqni bajarish jarayonida sifatlar narsa va shaxslarni qanday belgilarini bildirishi haqida savollar berib sifatlarni ajratish ko`nikmalari shakllantiradi.

4-sinf ona tili darsligida sifat mavzusida berilgan masqlarda sifat mavzusini o`rgatish jarayonida umumiy o`tilgan sifat mavzusilari takrorlanadi, yangi tushunchalar va shu takrorlash darslari orqali ma`nodosh va zid ma`noli so`zlar ustida ishlash ham mumkin. Masalan: "Oqish kitobi"da 267-mashgda matnni o'qing, matndagi shiziqshalar o`rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, qayta o'qing. Fikr mazmuni qaysi holatda to'liqroq ifodalanadi?

Ertalabga yaqin _____ shamol atrofni larzaga keltirdi.

Tog` cho'qqilarini _____ bulutlar o'rab olgan edi. Dam-badam tog` boshida shaqmoq shaqilar, go`yo allaqanday _____ kush osmon gumbazida _____ toshlarni yumalatib o`ynardi. Dam o`tmay selning ovozi _____ toshlarning sharaqlab oqib kelayotgani barala eshitildi.

R. Rahmonov

Matn mazmunini aniq va to'liq ifodalashga xizmat qilgan so'zlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan ko'shiring.

Qo'yish ushun so'zlar: *qop-qora, kuchli, qudratli, katta-kichik, xarsang.*

Qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi va qaysi so'z turkumiga kirishini

Tushirib qoldirilgan so'zlarni o`rniga qo`ygandan so`ng quyidagi so'z birikmalari hosil bo`ladi: *kuchli shamol, qop-qora bulutlar, qudratli kuch, xarsang toshlarni, katta-kichik toshlarning.*

Mashq shartlarini bajargandan so`ng, oquvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

- ushbu sifatlarga qarama-qarshi ma`noli so`zlar toping.
- ushbu sifatlarga ma`nodosh so`zlarni toping
- topgan so`zlaringizga so'roq bering va qaysi so'z turkumiga

mansubligini aniqlang.

Bu topshiriqlar turli shaklda; tarqatma material ko`rinishida barcha

o`quvchilarga alohida yoki guruhlarga bo`lib berilishi mumkin. Har ikkala ko`rinishda ham o`quvchilarning faolligini oshiradi.

4-sinf "O`qish kitobi"dagi 267-**mashq** qanday?, qanaqa? so`roqlariga javobolgan so'zlarning tagiga shizish, sifatlar nimaning belgisini bildishini aniqlash shrtiga qo'shimcha tarzda lu'at ustida ishlash mumkin.

Saxiy ona tabiat	Ko'k maysalar nish urib
Qushog'ida havo sof.	Yerning baland-pastida
Onda-sonda ko'rinar	Go'zal bahor selkillab,
Nursiz, qizg'ish oftob.	Yetilar qor ostida.

Qudrat Hikmat

Jumladan mashqni hamma shartlarini bajarish jarayonida manodosh va zid ma`noli so`zlar ustida ishlash topshiriqlarini mustaqil ish turi sifatida amalga oshirish mumkin. Tarqatma material sifatiga, uyda tayyorlab kelingan kartochkalar orqali individual topshiriq berish ham maqsadga muvofiq. Negaki, o`quvchilarni mustaqil fikrlashlari, o`zlari izlanib topgan so`zlari ularning lug`at boyligida mustahkam o`rin egallaydi. Masalan, har bir so`zga

ma`nodosh so`zlar: saxiy-mehribon, hech narsani qizg`anmaydigan, ko`ngli ochiq, qo`li ochiq

zid ma`noli so`zlarga esa: saxiy-xasis, qizg`anchiq, o`zini o`ylaydigan, ziqna, *ochko`z* kabi misollarni keltirib o`tadilar.

Ko`rinib turibdiki, o`quvchilar o`zlari o`qigan ertak qahramonlarini xususiyatlarini eslaydilar, fikr yuritadilar, taqqoslaydilar.

Lug`atini yangi-yangi so`zlar bilan boyitib borishga, mustaqil ishlarni to`g`ri tashkil etishga yordam beradi.

Darslikda berilgan 267-**mashqda** matnni o`qish, qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o`zi bog`langan ot bilan ko'chirish bilan birgalikda

Qor yog`yapti, Bolalarning beg'ubor qalbi daryoday to'lib toshyapti. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlardan oppoq kapalak uni ushlamoqshi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qorning bir parchasi qizchanning oppoq hovuchiga qo'ndi

Qor qizchani qo'ldi tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi Bir zumda hamma yoq yoq shoysahabga burkandi. Bolalai oppoq qorlarni dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi.

(*Jabbor Razzoqovdan*)

*Sifatlar nimaning (narsa yoki shaxsning) belgisini bildiriyapti? **Beg'ubor** so'ziga ma'nodosh so'zlar topib yozing.*

Sifatlar gapda qanday bo'lak vazifasida keladi? Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

Demak, mashqning asosiy shartlaridan biri sifatida **beg'ubor** so'ziga ma'nodosh so'zlar topish sharti berilgan. Bu so'zni tarmoqlash metodi ko'rinishida xattaxtaga yozib, o'quvchilarni guruhlarga ajratib bajartirish yaxshi natija beradi. Chunki, jamao bo'lib harakat qilish o'quvchilarda o'zaro do'stlik, mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

Uyga mustaqil ish topshirig'i berilayotganda, o'quvchilarni lug'at daftarlariga mashqdagi qolgan sifatlarga mos keladigan ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni yozib kelish vazifasi beriladi.

Berilgan matnga mos ravishda ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

ARCHA

Ko'm-ko'k arsha ona tuproq bag'ridan unib chiqadi. Quyoshning zarrin nurlarini emib o'sadi. Uning yam-yashil rangi hesh o'zgarmaydi.

Arsha qishning qahraton sovuq havosiga bardosh beradi. Bahorda ham sevimli libosini o'zgartirmaydi. Faqat yangi novdalar chiqaradi. Kuzda ham o'zining yashil to'nini tashlamaydi.

Novda so'ziga ma'nodosh so'z topish topshirig'iga qo'shimcha bacha sifatlarga ma'nodosh so'zlarni topib kelish vazifasi beriladi hamda o'quvchilar xato-kamciliklarini tusuntirilib, to'g'ri va ko'p bajargan o'quvchilar rag'batlaniriladi.

zarrin — yarqiroq, qahraton sovuq-ayoz, juda sovuq, yam-yashil-to'q yasil; sevimli-suyukli, yoqimli, yangi-hozirgi, endi ungan, yasil to'n-yashil barg, yashil kiyim

4-sinf ona tili darsligida 272- mashq matnini o'qish va so'roqlar yordamida sifatiarni

topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘shiring sharti berilgan.

O‘JAR BARG

Barglarning umri qisqa ekan. Kuz kelishi bilan qo‘ng‘ir tusga kirib, daydi shamolning hamlasiga dosh berolmay to‘kilisharkan.

... Bir o‘jar barg novdaga mahkam yopishib oiibdi.

— Biz ona yerga singib, unga madad beramiz. Sharofatimiz bilan kelgusi yil yangi barglar ko‘karadi, sen yolg‘iz qolma, qor-bo‘ronlarda holing ne keshadi?— deyishibdi sheriklari. O‘jar barg o‘ylanib qolibdi.

(Latif Mahmudovdan)

Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?

Sifatlar otga ohang yordamida bog‘lanadi.

Ushbu shartlar bajarilgach, o‘jar bargning xususiyatlarini “BBB” metodidan foydalanib yozish topshirig‘i o‘quvchilarga beriladi. Bu topshiriqlarga barcha o‘quvchilar o‘z tushunchalari bilan, mustaqil fikrlarini yozadilar va bu mustaqil ish turi hisoblanadi.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xoxlayman
Kuzda barglar xazon bo‘lishini	Xazon barglar yerga ozuqa bo‘lishini	Barglarning ham joni bormi
Hayot go‘zal ekanligini	Yashash hagarar shirin ekankigini	Burglar yana qayta tug‘ladimi

Bu o‘yin turlari o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash orqali “nima yaxshiyu – nima yomon” ekanligini va shu vaqtda bir-biriga zid bo‘lgan tabiat hodisasi haqida fikr yuritish bilan ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar ustida ishlash o‘quvchilarni faollashtiradi.

Topishmoqlarni topshiriq sifatida berish orqali ham zid ma‘noli va ma‘nodosh so‘zlar ustida ish olib borish o‘quvchilarni sifstlash, sifatlarning ma‘no turlarini ajratish kabi xususiyatlarini oshirishga yordam beradi. Masalan:

Kichik bir maydonchada

Pirpirar ikki chiroq.
Uning qoq o'rtasidan
Kesib o'tgan *katta* tog`.

Yorug` kunni boshlaydi,
Undan borliq yashnaydi.

Bu topishmoqni javobini topish bilan birgalikda, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni topish topshirig' ham beriladi.

Ko'shiring hamda sifatiarning qaysi so'zga bog'langanini aniqlab, gapdagi vazifasini belgilash va topishmoqdagi qarama-qarshi ma'noli sifatlarni, ma'nosh so'zlarni topish topshirig'ini bajarish mumkin.

Darslikda berilgan yoki mustaqil ravishda mavzuga mos **maqollar ustida** ham qarama-qarshi ma'noli va ma'nosh sifatga oid so'zlar topish ishlrini bajarish mumkin.

To'g'ri odam egri so'zdan or qiladi.

Befoyda so'zni ko'p aytma, foydali so'zni ko'p eshltishdan qaytma.

Chin so'zni **yolg'onga** chulg'ama, **chin** ayta oladigan tilni **yolg'onga** bulg'ama.
(Navoiy)

Sifatiarning otga bog'lanishini va otlashgan sifatlarni ko'chiring va ularga mos manodosh so'z topish topshirig'I beriladi.

N a m u n a : *to'g'ri odam*

Berilgan sifat va otlardan foydalanib, birikma tuzish va ularni ham sifatlarini ma'nodosh va zid ma'nolarga ajratish ishlarini, mustaqil so'z topish o'yinini amalga oshirish mumkin.

buyuk, ulug', katta, yirik;

olim, yozuvshi, bino, inson, davlat;

chiroyli, go'zal, barrio, suluv, dilbar;

qiz, bola, yigit, kelinchak, shahar, diyor.

Ma'nodosh sifatlarning har birini bitta ot bilan bog'lay oladimi savoliga javob berish orqali zid ma'noli so'larga ham shu topshiriqni berish mumkin.

Berilgan sifatlarga mos gul nomlarini **topib** birikma tuzish mashqida ham o'quvchilar lug'atini boyitish yaxshi natija beradi:

Qizil, sariq, qora, pushti, oq, ko'k.

Sundan so'ng, birikmalar ishtirokida to'rtta gap yozish va ajratib ko'rsatilgan sifatlarga berilgan sifatlardan ichidan yaqin ma'nolilarini topib, namunadagidek yozish topshirig'ini berishimiz mumkin.

N a m u n a: *ko'rkam, chiroyli, ...*

Ko'rkam, sezgir, katta, chaqqon, chiroyli, epchil, ziy rak, ulkan, shod, jasur,
xursand, qahramon.

ko'rkam, chiroyli; sezgir, ziyrak,
chaqqon, epchil; shod, xursand;
katta, ulkan, jasur, qahramon

Berilgan sifatlardan qatnashtirib gaplar tuzilgach, har biriga mos zid ma'noli so'zlar topshirig'i beriladi. Chunki, zid ma'noli so'zlar va ma'nodosh so'zlar bir-biri bilan yonmayon, qarama-qarshi ma'no bildirib keladi.

mashq. Birikmalaridagi sifatlarning ma'nosini taqqoslang.

Qalin kitob — qalin o'rtoq, chiroyli gul — chiroyli nutq; og'ir tosh — og'ir bola, yaqin do'st — yaqin dugona; o'tkir pichoq — o'tkir til, shirin tarvuz — shirin uyqu.

Ko'chiring o'z ma'nosida qo'llarigan sifatlarning tagiga chizing. Ko'chma ma'noda qo'llangan sifatlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

Sifatlar qanday ma'nolarda qo'llanishini tushuntirish orqali ham lug'at ustida ishlashimiz mumkin hamda ko'chma ma'noli so'zlar ustida ham ish olib boramiz:

Qattiq, qalin sifatlarini o'z va ko'shrna ma'noda qollab, birikmalar tuzib yozish.

Sifatlarning ma'nosiga e'tibor berish:

shirin bola, achchiq gap, og'ir qiz.

Birikmalardagi sifatlarni o'z ma'nosida qollab, gap tuzib yozish

Sifatlarni ma'no turlariga misol topib, berilgan so'zlar qatorini davom ettirish jarayonida ham qarama-qarshi va ma'nodosh so'zlar ustida ish olib borish mumkin.

Rang-tus: moshrang, sabzirang, qizil havo rang, qora, oq, ko'k

maza-tam: nordon, sho'r, taxir, achchiq, chuchuk,

Shakl: qiyshiq, to'g'ri, egri, dumaloq, yapaloq;

Hajm: baland, past, ulkan, katta, keng, tor, kichik.

Xil-hususiyat: muloyim, serjahl, jahldor.

Ko`rinib turibdiki, sifat mavzusini o`rganish orqali o`quvchilar-zid ma`noli va ma`nodosh so`zlar ustida ishlashiga turli xil imkoniyatlar mavjud. Bu ishlarni amalga oshirish esa o`qituvchining mahorati va ishga ma`suliyat bilan yondashuviga bog`liq.

Ot so`z tukumiga oid so`zlarga mos maza-ta`m bildiruvchi sifatlar topib, birikma tuzish va yozish ish turlarini amalga oshirayotgan vaqtda ham qarama-qarshi ma`noli sifatlarni topish va ularni yozishiga e`tibor qaratiladi.

-----olma,-----behi,-----anor,-----sarimsoq,-----olcha,-----gilos,-----dovcha

Shu o`rinda ma`nosi bir-biriga yaqin bo`lgan ma`nodosh so`zlarni topish mustaqil ish topshirig`ini berishi mumkin.

Ma`nodoshlar va zid ma`noli so`zlar ustunchasini guruh-guruh bo`lib topish beriladi. G`olib guruh rag`batlantiriladi.

4-sinf oqish kitobida berigan 291-mashq shartlarini bajarish jarayonida ma`nodosh va zid ma`noli sifatlarni topish ustida mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

Zid ma`noli so`zlar

Shirin-be`maza

Achchiq-chuchuk

Ma`nodosh so`zlar

shirin, xushta`m

lazzatli, shifobaxsh

O`quvchilar lug`ati yangi-yangima`nodosh so`zlar bilan boyishi uchun matnda ishtirok etmagan ma`nodosh va zid ma`noli so`zlar ustida ishlaymiz.

Chidam bilan—sabr-bardosh bilan,

Asal-bol.

Ma`qul-mos-maqbul.

4-sinf ona tili darsligida keltirilgan 301-mashqida uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlaridan bittadan tanlab, ularga xos belgilarni bildirgan sifatlarni to`plash va birikma tarzida yozishda tarmoqlash usulidan ya`ni tanqidiy mashq usulidan foydalanib ma`nodosh va zid ma`noli sifatlar ustida ishlash mumkin. Bu mushuk va

bo'ring xususiyatlariga berilgan ta'riflarni ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga ajratish orqali o'quvchilar lug'ati yangi ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bilan boyish, birga taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko'nikmasi ham shakllanadi.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida ushbu topshiriq nimustaqil ish sifatida kichik guruhlariga yoki har bir o'quvchiga individual berish mumkin. Har bir o'quvchi o'zining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib uy hayvonlarini yoki yirtqich hayvonlarni tanlaydi. Shu jarayonning o'zida ayrim o'quvchilar umuman eshitmagan, tanish bo'lmagan so'zlar bilan tanishadilar ma'nosini bilib oladilar. Hech kim eshitmagan so'zlarni topgan o'quvchilarni rag'batlantirish o'quvchilarni lug'at ustida ko'proq ishlash, nafaqat ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni balki boshqa notanish bo'lgan so'zlarni ko'proq o'rganish, kitob bilan ishlash, kundalik axborotlar bilan tanishib borish ko'nikmasini shakllanishiga yordam beradi.

Xuddi shu topshiriqdan xonaki va yovvoyi gullar, qushlarning xususiyatlari ustida ishlashda ham foydalanish yaxshi natija beradi.

O'quvchilarning lug'ati ma'nosi bir-biriga yaqin va qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan boyitiladi.

4-sinf ona tili darsligining 122-betida berilgan 291-mashqdagi matn orqali ham ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ish olib borish mumkin.

Buning uchun matn avval tushuntiriladi.

Keyin sifat so'z turkumiga doir so'zlar so'roq berish orqali aniqlanadi. Mashq uchun berilgan shart bajarilgach, maza-ta'm bildirgan so'zlarga avval ma'nodosh, keyin zid ma'noli so'zlarni topish guruhlariga bo'lib yoki individual tarzda beriladi.

Mashqqa qo'yiladigan shart: *maza-ta'm bildirgan sifatiarni tagiga shizing.*

Maza-ta'm bildiruvshi sifatiarning yozilishini yodingizda tuting.

Shu so'zlarning qaysi birida qanday xatoga yo'l qo'yishingizni ayting.

ASALNING YARATILISHI

Ari avval duch kelgan narsalarni tamaddi qilar ekan. Shirin, bemaza, achchiq, chuchuk narsalarni yeyish uni bora-bora noziklashtiribdi. So'ng u o'ziga ma'qul taomni topmoqshi bo'libdi. Keshayu kunduz tinmay mehnat qilibdi. Nihoyat

xushta'm taom tayyor bo'libdi.

Ari chidam bilan mehnat qilib, shifobaxsh va lazmatli taom — asalni yaratibdi.

(o'zbek xalq ertaklari“dan)

Zid ma'noli so'zlar

Shirin-bemaza

achchiq- chuchuk

kesha-yu kunduz

ma'nodosh so'zlar

Shirin, chuchuk

bemaza, achchiq

shifobaxsh, lazmatli

xushta 'm -mazali

asal-bol

297-mashqda berilgan Mamajon Xoliqov “Temur bobom” va Ollabergan Po'latning “Jayronlar” she'rlari orqali insonlar va yovvoyi hayvonlar xususiyatlarini o'rganadilar, sifatlaydilar.

TEMUR BOBOM

Temur bobom —

Buyuk bobom,

Ellar aro

Suyuk bobom.

Dono, a'lo,

Oqil bobom,

Adolatli,

Odil bobom.

Mamajon Xoliqov

JAYRONLR

O'rmonda ochko'z bo'ri

Ko'rindi-yu nogahon,

Shu ondayoq ekranda

Bo'lib ketdi to'polon.

Yuvosh jonivorlarni u

Quva ketdi tish g'ajib.

Eh, ishqilib jayronlar

Qutulgan bo'lsin qochib.

Ollobergan Po'la

Mashq shartida“TEMUR BOBOM” she'ridan alohida berilgan **oqil** va **dono**, **adolat** va **odil** sifatlarining ma'nosini tushuntirish orqali o'quvchilar ma'nodosh so'zlar ekanligini bilib oladilar va shu so'zlar gaqarama-qarshi ma'noli so'zlarni topish topshirig'ini berish o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga chorlaydi.

“TEMUR BOBOM”

Ma'nodosh so'zlar


buyuk-ulug', qadrli
suyuk, a'lo-eng sevimli
dono, oqil-aqli, donishmand
odil, adolatli –adolatparvar

Zid ma'noli so'zlar

beqadr
yoqimsiz
aqlsiz
adolatsiz

Bu mashq orqali sifatlarning yasalishi va sifat yasovchi qoshimchalarning ham zid ma'noli va ma'nodoshligi haqida tushuncha berib o'tiladi.

“JAYRONLAR” she'ridagi hodisani avval baholash, tahlil qilish, undan so'ng ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarni o'ziga bo'g'langan so'zlar bilan alohida yozish va ulaning qarama-qarshi ma'nosini topish topshirig'i bajartiriladi



Sifatlarni so'roqlar yordamida aniqlang, ularni qanday xususiyat bildirayotganligini, ayting savolini berish mumkin. Sifatlarni bog'langan so'z bilan birga ko'shiring va gapdagi vazifasini ayting.

Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni yozing.



Slaydlar va multmediyali namoyishlar orqali ham o'quvchilarning zid ma'noli va ma'nodosh so'zlar bilan lug'atini boyitish, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish samarali usullardan hisoblanadi,

Demak, boshlang'ich sinflarning har bir ona tili darslarida o'quvchilarning lug'atini oshirish mashqlari ish turlarining turli-tumanidan foydalanib amalga oshirilishi mumkin. Faqat o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olish hamisha bosh masala hisoblanadi.

II. 2. Sifatning o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli yasovchi qo'shimchalari ustida ishlash

Boshlang'ch sinflarda faqat sifatning ma'no turlari emas balki sifat yasovchi qo'shimchalarning ma'nodoshligi va zid ma'noligi o'rgatiladi.

Sifat so'z turkumi leksikologiyasi ikki xil yo'l bilan boyiydi.

Bular quyidagicha yasaladi:

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan.
2. So'zlarni qo'shish bilan.
3. So'zlarni takrorlash bilan.

Sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-li: *-dor:* *ba-:*
ser-: *-mand:*

Yuqoridagi qo'shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz: *be-:*

Bu qo'shimchalar esa (*no-* qo'shimchasi bilan birgalikda: **noaniq**, **notinch**.) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik: *-iy,-viy:*
-gi,-ki,-qi: *-aki, -oqi: -yi-CHAN:*
-simon: *-kor,-gar:*
-i: -cha: *-namo:* *-parvar:*
-loq: *-kor:* *-kash:*
-chi: *-von:* *-qa:* *-omuz:* *-xo`r* *-soz:*
-dek(-day):

2) Fe`ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-choq,-chak,-chiq: *maqtanchoq, kuyunchak, qizg`anchiq*
-gir,-g`ir,-kir,-qir,-qur: *sezgir, topqir, o`tkir, olg`ir,*
uchqur

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo`shimchalar :

Ravishdan: *-gi: kechagi, dastlabki*

Sifatdan: *no-: noma`lum, noto`g`ri.*

-lom: sog`lom

Taqlid so`zdan: *-ildoq: bijildoq, likildoq*

Sifatning o`zaro ma`nodosh va zid ma`noli yasovshi qo`shimchalari ustida ishlash oquvchilar lug`arini yangi sifatlar bilan boyish yo`llarini o`rgatishga yordam beradi.

-li: rasqli kitob, kuchli shamol

-dor: aybdor, vafodor

ba-: badavlat, baquvvat

ser-: serhosil olma.

-mand: kasalmand, davlatmand

Bir xil o`zakli so`zlardan tashkil topgan so`zlarni topish va so'roqlar yordamida so'zlarning qaysi turkumga oidligini aniqlash mashqlari orqali o`rgatish. Bu mashqlarda berilgan sifatlarni topib, ularni o`zak va qo`shimchaga ajratish sifatlarning yasovchi qo'shimchalar bilan yasalishini tushuntirish masqlarini tashkil etish bilan amalga oshiriladi. Masalan

Meva, mevali, mevazor, mevasiz; ish, ishshi, ishli, beish, ishsiz, ishshan, ishla; hosil, hosildor, hosilsiz, serhosii, hosilli.

Har bir so'zdan neshtadan so'z hosil bo'lyapti?

Sifat turkumiga doir so'zlarni ko'chirib, tarkibiy qismlarini belgilang. Qo'shimshaning turini ayting.

Namuna: *mevali, ...*

-ser, be-, -siz, -li, -chan, -dor, -q — sifat yasovshi qo`shimshalardir.

So`ziarni o`qib, ularga ma`nodosh so'zlar tanlab yozish mashqlari orqali ham

bajartirish usuli bilan tushuntirish mumkin.

Buning uchun namuna uchun birinchi soʻzlar beriladi va shu soʻzlarga maʼnodosh toppish beriladi. Masalan:

Ishchan, hosildor, aqlsiz, harakatshan...

Oʻquvchilar: **mehnatkash, serhosil, aqli serharkat** javobini berishadi.

Masqning ikkinchi sharti: shu sifatlarga **qarama-qarshi maʼnoli sifatlar** topib yozish topshirigʻi bajariladi. Oʻquvchilar bilimini savollar bilan mustahkamlaymiz.

Sifatiarning tarkibiy qismlarini belgilang.

Ularning qaysi qismi bir xil?

Ular qaysi soʻz turkumiga kiradi?

Soʻz maʼnolarini qaysi qism oʻzgartiryapti?

Sifat turkumidagi soʻzlar qanday koʻpayib boradi?

Tanlash ushun soʻzlar: *serhosil, mehnatkash, aqli, harakatchan.*

Qarama-qarshi maʼnoli sifatlar ustida ishlash jarayoni maʼanodosh soʻzlar bilan birgalikda olib boriladi

Berilgan sifatlarga **qarama-qarshi maʼnoli sifatlar** topib, juftlab yozing va ularning ganday hosil boʻlganligini tushuntiring.

Gulli— *koylak* , odobli— *bola* _____ , gulsiz-odobsiz

unumli—*ish*_ unumsiz

suvli—*suvsiz* ----- ,

ishli—*ishsiz* .

ser-hosil -----hosilli-----hosildor

be-hosil -----hosilsiz

Sifatlarni tarkibiy qismlarga ajratib, qoʻshimshalar qanday vazifa bajarayotgani tushuntirilgach, mustaqil yasama sifatlarni topish va sifat yasovshi qoʻshimshalariga tegishlisini belgilash vazifasi bajartiriladi. Oʻquvchilar:

Bir xil oʻzakdan hosil boʻlgan bir necha soʻzlar boʻlishi mumkin. Qoʻshimchalar

qo'shish orqali ular bir-biri bilan ma'nodosh ham, zid ma'noli ham bo'lib keladi.


Sifat yasovchi qo'shimchalar boshqa so'z turkumlaridan ham

Porla, chanqa fe'llariga -q sifat yasovshi qo'shimsha qo'shib, sifatlarni yasang.

So'zlarda qanday tovush o'zgarishlari bo'ldi?

Nima ushun?

Berilgan shizmadan foydalanib, sifatlarni hosil qiling,



Mustaqil barcha o'quvchilar daftarlariga boshqa shunday bir o'zakdan hosil bo'ladigan so'zlardan topib yozadilar. Kim ko'p va birinchi yozib, hosil bo'lishini tushuntirib bersa, rag'batlantiriladi.

So'z o'zagiga sifat yasovshi qo'shimshalar qanday qo'shilar ekan?

Sifatlarni topish jarayonida ham olib borish mumkin. Chunki she'rlar boshlang'isn sinf o'quvchilarining sevimli ish turlaridan bo'lib, she'rlarda sifatlarning juda ko'p turi beriladi. Buning uchun avval she'rni o'qish, sifatlarni topish, keyin yasovshi qo'shimshali sifatlarni, so'ng yasovshi qo'shimshasiz sifatlarni ko'chirish vazifasi bajariladi.

TURG'UN BOBOM

Keng, bepoyon vodiylarni

Ko'rkam yoz bezar.

Tun qo'ynida

Turg'un bobom

Dalani kezar.

O'zi juda ishga *shaqqon*,

Taniqli suvshi.

Uni sevar har dehqon,

Har bir o'quvshi.

Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, avval ularning ma'nodoshlarini, keyin qarama-qarshi manoli sifatlarni mustaqil ish topshirig'i sifatida beriladi.

So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlarni yasaladi:

1) **qo'shma** sifatlarni quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo'shib yoziladi: **bodomqovoq, sheryurak;**

b) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: **qimmatbaho;**

v) ot yoki ravishga *-ar* qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: **tezoqar daryo, ertapishar (o'rik)**

g) otga *aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang* so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: **xalqaro, umumjamoat, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti, ochyashil.**

Demak, so'zlarni qo'shish va juftlab yozish, bog'lab yozish orqali ham sifatlarni yasalishi haqida ilk tushunchalarni ham amaliy, ham nazariy tanishtirish jarayonida ham ma'nodosh va zid ma'noli so'zlardan foydalanish mumkin.

Sifat **darajalari** ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ko'proq juft sifatlarni, ularning yozilishi, imlosi, qaysi so'z turkumidan yasalgani, qanday yasalgani haqida tushunchalar beriladi.

Ushbu berilgan mashq orqali o'quvchilarga sifatlarning ma'nosidagi farqni *Juftlab berilgan birikmalarni o'qing.*

Ma'nosidagi farqni ayting.

Katta bola — kap-katta bola.

Yashil qir — yam-yashil qir.

Oq ko'ylak — oppoq ko'ylak.

Tiniq suv — tip-tiniq suv.

Qizil mato — to'q qizil mato.

Pushti gul — osh pushti gul.

Berilgan she'ri ifodali o'qib, ular orqali sifdarajalarini aniqlash va ularga mos keladigan ma'nodosh hamda zid ma'noli so'zlarni topish mashglari

Ona-Vatanimizga Dum-dumaloq chigitcha

Tip-tiniq osmon kerak. O'xshar jimit koptokka.

Biz yashagan zamonga Balki tug'ma qarindosh

Pokiza bog'bon kerak. Ona-yer-u oftobga.

Qambar O'tayev Quدرات Hikmat

Ko'chiring, sifatlarni aniqlab, ularning qaysi so'zga bog'langanini chizmada tasvirlang.

Namuna: *Tip-tiniq osmon -----ko'm-ko'k osmon;*

pokiza bog'bon-----top-toza;

dum-dumaloq chigitcha-----

Sifatlarning yozilishini tushuntiring.

Jimit, pokiza so'zlariga ma'nodosh sifat toping:

Jimit----kichkina, maydagina,

Pokiza-----toza, ozoda, top-toza, yog' tushsa yalaguday.

Yoki berilgan sifatlarni o'qish, yozilishini kuzatib, ularni boshga ma'nodoshi bilan almashtirish:

Qop-qora, bus-butun, bo'm-bo'sh, ko'm-ko'k, tip-tiniq, oppoq, top-toza, tim qora, to'q qizil, eng kushli.

Sifatlarga mos otlar tanlab, birikma tuzib yozinsh, sifatlarning yozilishini yodingizda tuting vazifasi beriladi.

Matni o'qing. Sifatlarni toping. Ularni o'zi bog'langan ot bilan ko'shiring. Qavs ishida ma'no turini yozing.

BIR TUP QAYRAG'OCH

Qishlog'imizdagi anhor bo'yida juda katta qayrag'osh bor. Uning qalin barglari yerga oftob tushirmaydi. Qayrag'oshdagi qushlarning yoqimli ovozi sira tinmaydi.

Qishloqning bir tomoni — poyonsiz qir. U yerda buy' doylarning bo'liq boshloqlari to'iqinlanib turadi.

G'allakorlar issiq kunlari shu qayrag'osh tagida hoi< IK shiqarishadi. Bu qayrag'oshni qishlog'imizning kekxa otaxon Norbobo o'tqazgan ekan. Hamma Norboboning nomin hurmat bilan tilga oladi.

So'zlarni o'qib, so'roqlar yordamida sifatlarni topish, ko'cirish. Sinonim va zid ma'noli so'zlar qatorini tuzish vazifasi bajariladi:

Foydali, sersuv, guidon, aqili, qaynoq, taroq, qanddon o'roq, qadrdon.

Sifat yasovshi qo 'shimshalarni tegishlisha belgilang.

Sifatlar ishtirokida ikkita sodda gap yozing.

Matnni o'qish Savollar yordamida sifatlarni topil; o 'zi bog'langan so 'z bilan ko'shiring.

Qoratosh ko'm-ko'k bargli o'rik yonida yotardi. Unlhj ma'yus ko'zlari yig'layotganga o'xshardi. Qoratosh yonid.u yaralangan edi. Juda baquvvat va shiroyli oyoqlari anshj ingishka tortib qolgan edi.

Qip-qizil lolaqizg'aldoqlar oshilib tugagan kun eng ynqii do'stimni yo'qotdim.

Belgi ma'noni kushaytirib ifodalayotgan sifatlarni ayting.

Sifatiarning yozilishini tushuntiring.

4- sinf „o'qish kitobi“dagi Shukur Sa'dullaning „Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r" asarini ifodali o'qlilgan she'rdan sifatlarni aniqlab, birikma tarzida ko'shiring. Yozilishini yodingizda tuting. Oxirgi to'rtlikni yod oling.

Oq kaptar *nimaning ramzi ekanini aytingva kichik inshoyozing*

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgani sayin, inshoga talab ham orta boradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish:

Nutq o'stirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya'ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).

Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).

Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).

Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik).

O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

320-mashq Rasmni kuzating. Rasm asosida insho yozing.

Insho yozishda berilgan rejadan foydalaning.



Reja.

1. Qish faslida tabiatning ko'rinishi.

2. Bolalar tabiat qushog'ida.

Ushbu mashq shartini bajarish jarayonida o'quvchilar yozgan insholari asosan talab darajasidagi, o'rtacha kattalikdagi matnni tashkil etadi.

*Qish faslida hamma yoq **oppoq** qor bilan qoplanadi. **Sovuq** havo hukm suradi. Suvlar **oynadek** muzlaydi. Dov-daraxtlar **mayus** uyquga ketadi. **Uy hayvonlari** va **yovvoyi hayvonlar** ko'rinishi o'zgaradi. Bobo dehqonlar ham **xotirjam**, dala yumushlaridan bo'shaydilar.*

*Hamma **issiq** kiyim kiyadi. Adirlarda mazza qilib yaxmalak uchamiz, **yumshoq** lekin **muzday** qordan qorbobolar yasaymiz.*

O'quvchilar yozgan insholaridan sifatlarni ajratib, ularning ma'no turlari, ma'nodoshi bormi yoki yo'qligi, zid ma'noli sifatlarini topib yozish ish tullari amalga oshiriladi.

*Oppoq, **sovuq**, **oynadek**, **mayus**, **uy hayvonlari**, **yovvoyi hayvonlar xotirjam**, **issiq**, **yumshoq**, **muzday**.*

O'quvchilar vazifani bajargach, ularning olgan bilimlari savol-javob orqali tekshiriladi.

- Sifatlar qanday ma'nolarni bildiradi?
- Sifat nimaning belgisini bildiradi?
- Sifat otga qanday bog'lanadi?
- Sifat gapda qanday bo'lak vazifasini bajaradi?
- Sifarlar qanda yasaladi?

Sifat yasovchi qo'shimchalar o'quvchilar lug'atini yangi sifatlarni boyitishga, nutqini jojobadorligini, boyligini yanada oshirishga asosiy o'rinlardan birida turadi. Oquvchilarning ijodkorlik xislatlarini shakllanishiga yordam beradi. Ona tili darslari bilan bir vaqtda oqish darslarida ham sifatlarni ustida ishlash usullarini amalga oshirish yaxshi natija beradi.

II. 3. Ma'nodosh va zid ma'noli sifatlarni o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko'p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Ma'lumki o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darslarda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin, bir tamondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sho'xlik kabi xususiyatlariga muvofiq kelsa, ikkinchi tamondan, ba'zi bolalardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi jihatlarini bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik-orfografik tushunchalar mohiyatini angelay boshlaydi, uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydi, og'zaki va yozma nutqidagi orfoepik – orfografik tushunchalar mohiyatini angelay boshlaydi, yozma nutqidagi orfoepik – orfografik nuqsonlar kamayadi. Ta'limiy o'yinlar sinf jamoasining erkin tutishlarini ta'minlaydi, darsning samaradorligi ortadi. O'yinda ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarini qo'yib borish imkoniyati tug'iladi.

O'yinlarning yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, sinfda inoqlik, shiddat hukm suradi. O'quvchilar bir-birlariga yordam bergilari kelib, sinf jamoasining jipsligi yanada ortadi.

Ona tili mazmuniga ko'ra ta'limiy o'yinlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. fonetik – grafik o'yinlar
2. so'z yasalishi bo'yicha o'yinlar

3. grammatik o'yinlar
4. orfografik o'yinlar
5. nutq o'stirish tusidagi o'yinlar.

Ta'limiy o'yinlar o'tkazilish xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

1. og'zaki o'yinlar
2. indamas o'yinlar
3. yozma o'yinlar

Ta'limiy o'yinlar tashkil qilinishi bo'yicha quyidagi turlarga ajraladi:

1. guruxlararo musobaqa tarzidagi o'yinlar
2. tarqatma materiallar yordamida o'tkaziladigan o'yinlar
3. qo'l barmoqlari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar

O'qishdan ta'limiy o'yinlar, shuningdek, she'r, ertak, hikoya, topishmoq, tez aytishlardan, turli rebus va boshqotirma jadvallaridan ham unumli foydalanish mumkin.

O'yinni tashkil qilishda o'qituvchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- ❖ o'yin qiziqarli, sodda, tushunarli, aniq bo'lsin;
- ❖ o'yin mavzuga mos, chuqur mazmunli bo'lsin;
- ❖ o'yinda iloji boricha ko'proq o'quvchi ishtirok etsin;
- ❖ o'yinda qiziqarli narsalar ko'p bo'lsin;
- ❖ o'yinni o'tkazilish muddati, tartibi aniq bo'lsin;
- ❖ o'yin o'quvchilarni muayyan ko'nikmalari va malakalarini shakllantirsin;
- ❖ o'yin g'oliblari rag'batlantirib borilsin.

O'qituvchi o'yin turlarini mustahkamlanayotgan mavzuga muvofiq tanlab, belgilangan o'yin turiga mos shaklni tuzib, o'yin tartibini aniq belgilab olishi lozim. O'yin uchun kerakli material esa imlo lug'ati, o'qish kitobi, bolalar jurnali, turli badiiy asarlar to'plamlaridan olinadi.

Materialni o'yin shakliga solishda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

- ✚ o'yin materialida mavzuga oid misol ilojiborichako'p bo'lsin;
- ✚ material va o'yin shakli o'quvchi yoshiga mos, tushunarli, sodda va qiziqarli bo'lsin;

- ✚ o'yin shakli va material hajmi dars strukturasi muvofiq bo'lsin;
- ✚ material va o'yin shakli o'quvchi nutqini o'stirish, imloviy savodxonligini oshirish imkoniyatini bersin;
- ✚ material va o'yin shakli o'quvchi aqliy faolligini yaxshilasin;
- ✚ material va o'yin shakli o'quvchi dunyoqarashini o'stirsin, tarbiyaviy elementlarga boy bo'lsin.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakldagi ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi, avvalo, ta'limiy o'yinning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o'yinga kerakli materialni tayyorlab o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, o'yinni o'zi boshqarib borishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay tuzatib borishi zarur. O'yin oxirida tegishli xulosalar chiqarilib, ballar e'lon qilinadi.

O'quvchilarning ishi yig'ib olib baholanadi. Bu texnologiya bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni baxolash imkoniyatlarini berish bilan, ularning fakrlash, xulosa chiqarish qobiliyatlarini xam shakllantiradi, qiziqishlarini orttiradi.

«Kim ko'p so'z biladi?»

Bu o'yin o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo'linadi va 1-guruh o'quvchilariga boshlanishi va tugallanishi unidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugallangan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni doskaga yozish topshiriladi.

Masalan, 1- guruh «*ilmi*», «*aqli*», 2- guruh esa «*qiziq*», «*notekis*» kabi so'zlarni yozishi mumkin. Keying shart guruhlarni topgan so'zlariga qarama-qarshi tomon ma'nodosh va zid ma'noli sozlarni topish topshirig'I beriladi. O'yin shartiga ko'ra, guruhlardagi o'quvchilar navbat bilan vazifani bajaradilar. So'z topolmay yozishdan to'xtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.

«So'z top»

Ushbu o'yinni 2—3- sinflarda darsning kirish qismida o'tgan mavzuni mustahkamlash yoki lug'at ustida ishlash maqsadida o'tkazish mumkin. O'qituvchi

bir so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettirishadi. O'yin qoidasiga ko'ra, birinchi aytilgan so'z qaysi harf bilan tugasa, keyingi o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Masalan, *kitob - bardoshli- gul -lobar- aziza-aziz - maktab – barno-bola — aqlli - ...* kabi davom ettiriladi.

Jarayonda sinfdagi barcha o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi. So'zlarni takror qo'llamaslik sharti o'quvchilarni bir-birini diqqat bilan kuzatishga, qaysi so'zlar aytilganini xotirasida saqlab turishga, muhimi, hozirjavoblikka o'rgatadi.

Shuningdek, bu o'yin turini biror mavzuga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilarga muayyan soha yoki mavzuga taalluqli so'z topishlari aytiladi. Masalan, zid ma'noli xususiyat bildirgan so'zlarni aytish topshirig'i berilganda, 1- o'quvchi: *xontaxta*; 2- o'quvchi: *ko'rpacha*; 3- o'quvchi: *gilam*; 4- o'quvchi: *guidon* va hokazo tarzida o'yinni davom ettiradi. Bunda aytilgan so'zning qaysi harf bilan tugashi emas, aynan shu mavzuga aloqador bo'lishi bosh mezon qilib belgilanadi. «So'z top» o'yinining barcha turida ham tezkorlik bilan javob bermagan o'quvchi o'yinni tark etadi, o'yinda oxirigacha ishtirok etganlar g'olib bo'ladi.

«Jumlani davom ettir»

O'yin qoidasiga ko'ra, birinchi o'quvchi birorta qisqa gap aytadi, boshqa o'quvchi aynan shu gapga so'z qo'shib boraveradi.

Masalan:

1- o'quvchi; *Men hikoya o'qidim.*

2- o'quvchi; *Men qiziqarli hikoya o'qidim.*

3- o'quvchi: *Men kecha qiziqarli hikoya o'qidim va h.k.*

So'z qo'sha olmagan yoki xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi o'yinni tark etadi. 6—7 daqiqa mobaynida o'yin davomiyligini ta'minlab turgan o'quvchilar g'olib bo'ladi va baholanadi.

«**Kim tezroq?**» o'yini yozma shaklda bajariladi va bunda har bir o'quvchiga ko'p manoli so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Masalan. *Bahor. Daraxtlar gullaydi. Gullar ochiladi. Qushlar say ray boshlaydi. Navro'zi olam kirib keladi. Doshqozonlar qaynaydi. Sumalaklar pishadi...* kabi. O'quvchilar esa mazkur

gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib, sifat soʻz turkumiga oid bolga soʻzlar bilan daftarlariga yozishlari, manodosh va zid maʼnoli sozlarni topishlari lozim. Topshiriqni birinchi bajargan oʻquvchi tuzgan gapini oʻqib beradi. Vazifani bexato bajargan oʻquvchi aʼlo baho bilan ragʻbatlantiriladi.

«**Kuch birlikda**» oʻyinini oʻtkazish uchun xattaxta ikkiga boʻlinib, har bir guruh uchun alohida mavzu yozib qoʻyiladi. (Masalan, «*Gulzorda*» yoki «*Maktabimiz bogʻi*» kabi). Bunda har bir guruh aʼzosi gap turib, mavzu boʻyicha matn hosil qilishga oʻz hissasini qoʻshishi lozim. Oʻn daqiqa davomida qaysi guruh tez, chiroyli va mazmunli matn tuza olsa va tuzgan matnlarida foydalangan sifatlar soni koʻp boʻlsa va ular oʻz maʼnodoshlari bilan birga yozilgan boʻlsa, shu guruhga ragʻbat kartochkasi beriladi, soʻngra tuzilgan matn doskaga yozdiriladi hamda zid va maʼnodish soʻzlar lugʻat daftarga yoziladi.

«**Muomalani biling**»

«Oʻzbek tili» darsliklarida beriladigan muomala odobiga oid maʼlumotlarni mustahkamlash jarayonida ushbu taʼlimiy oʻyindan foydalanish tavsiya etiladi. Oʻyinda oʻquvchilar bir-biriga muomala odobiga oid soʻz yoki gaplarni takror qoʻllamasdan aytishlari kerak boʻladi. Masalan: 1- oʻquvchi; *Xush kelibsiz!*

2- oʻquvchi: *Yaxshi keldingizmi?*

3- oʻquvchi: *Rahmat!*

4- oʻquvchi: *Minnatdorman.*

5- oʻquvchi: *Yaxshi boring.*

6- oʻquvchi: *omad sizga yor boʻisin!*

7- oʻquvchi:

Ushbu oʻyinni boshqacharoq tashkil etish ham mumkin. Bunda oʻquvchilar ikki guruhga boʻlingani holda, 1- guruh ishtirokchilari maʼnodosh soʻz va birikmalarni, 2- guruh vakillari esa shu soʻz va soʻz birikmalariga qarama qarshi maʼnoli soʻzlarni aytib berishlari kerak boʻladi. Guruh ishtirokchilari navbatma-navbat bir-birlariga murojaat qiladilar. Masalan:

1-guruh

2-guruh

odobli bola

odobsiz bola

ko'ngli qoldi (xafa bo'ldi)

xursand bo'ldi....

kabi davom ettirib, oquvchilarga hafaqat so'zlar bir-biriga ma'nodosh yoki zid munosabatda bo'ladi, balki bitta so'zga butun boshli bir gap ma'nodosh yoki zid mapnoli bo'lishi mumkinligi haqida tushuncha beradilar.

«Kim qaysi rangni yaxshi ko'radi?»

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va har bir guruhdan bittadan o'quvchi doskaga taklif etiladi. Birinchi guruh ishtirokchisi «*Kim?*» yoki «*Nima?*» so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi «*qanday?*» so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni qayd etadi. Bu o'yin faqat ranglarni emas balki xususiyatlarga nisbatan ham qo'llanadi. Natijada quyidagi so'z bitikmasi hosil bo'ladi.

1- guruh	2- guruh
<i>O'qituvchi</i>	<i>mehribon</i>
<i>O'quvchilar</i>	<i>Bilimli</i>
<i>Oush</i>	<i>chiroyli</i>
<i>Shamol</i>	<i>yoqimli</i>
<i>Gul</i>	<i>xushboy</i>
<i>Paxta</i>	<i>oppoq</i>
<i>Yomg'ir</i>	<i>sharros</i>
<i>Quyosh</i>	<i>nurafshon</i>

O'quvchilar xattaxtaga yozilgan so'z birikmalarni daftarlariga ko'chirib oladilar. Bu o'yinda ularning topqirligi va yozma savodxonligi ham e'tiborga olinadi. Qaysi guruh a'zosi topshiriqni bexato bajarsa, shu guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.

Iqtidorli va ilg'or o'quvchilarga ushbu ish turini ijodiy davom ettirish, ya'ni so'zlarning sinonimlari yordamida topshiriqni kengaytirib bajarish vazifasi topshirilishi mumkin. Agar o'quvchi topshiriqni quyidagi tarzda bajarsa, unga ikkita rag'bat kartochkasi beriladi: *Shifokor, tabib davolaydi, shifo ulashadi.*

Bu o'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda, ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, e'tiborli bo'lishga o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

«**Oltin toj**» o'yinini oyda bir marta o'tkazib turish o'tilgan mavzularni mustahkamlashga, o'quvchilar bilimining darajasini aniqlashga, bilim olish ishtiyoqini, intilishini kuchaytirishga yordam beradi. Bir oy davomida oltin toj sovrindori bo'lib yurish kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ko'tarinki ruh beradi, ularning darsga, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Bu o'yin uchun:

- kim ko'p ma'nodosh so'zlarni biladi;
- kim ko'p qarama-qarshili ma'noli so'zlarni biladi;
- paronim va ko'p ma'noli so'zlarni biladi;
- kim ko'p badiiy asar o'qiydi;

kabi naminsiyalarda o'rinlar joriy etish mumkin. Bu ishlarni doimiy o'tkazish, oquvchilar orasidan g'oliblarni aniqlash, taqdirlash boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida raqobatni o'stiradi. "Oltin toj" egalariga havas qilish va ular ham shu tojga erishish uchun harakat qilishlariga turtki bo'ladi.

Turli xil ta'lim texnologiyalaridan ham foydalanish, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, savol-javob, ertak qahramonlari xususiyatlarini tahlil qilish orqali ham o'quvchilar lug'atini zid va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash mumkin.

Ona tili darslarida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash, lug'at boyligini o'stirishga to'g'ri taskil etilgan dars va to'g'ri tanlangan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati juda katta o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta'limiy o'yinlardan foydalanish samarali natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Chunki, boshlang'ich sinflarda hali o'yin faoliyati ayni avjida, qiziqishlar quchog'ida, orzular olamida yashaydilar.

Boshlang'ich sinflarda ona tilining ilmiy jihatlarini tushuntirish juda murakkab bo'lganligi bois pedagogik texnologiyalardan foydalanish barkamol avlod tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir dars bir asar sifatida amalga oshirilishi bugungi kunning asosiy masalasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni ona tili fanni bilan yaqindan tanishtirish ularni har tomonlama yuksak ma'naviyatli bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Fanning mazmunini tushunish jarayonida o'quvchilar tasavvur qiladilar, fikrlaydilar. Bu esa bolalarning aqliy salohiyatini o'stiradi, xotirasini mustahkamlaydi.

Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, "Har qanday millatning ravnaqi , umumbashariyat tarixida tutgan o'rnini, mavqei va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liq. Shunday ekan bu masalalarga sirdan yondashish ketmaydi. Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdandir".

Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishi, o'z fikrini erkin va ravon bayon eta olishi, so'zlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash ko'nikma va malakalari rivojlantirishda asosiy fan hisoblanadi. Shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichidayoq ona tilini o'qitishga alohida etibor berish lozim.

Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda o'quv dasturlari va darsliklardagi bo'lim va mavzular uzviyligiga e'tibor berish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zid ma'noli va ma'nodosh so'zlar haqida bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o'qish darslari davomida ham o'rgatib boriladi. Ayniqsa, asar mazmunu va asar qahramohlarini tahlil qilish jarayonidagi lug'at tarkibi, undagi qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlarni, ko'p ma'noli so'zlarni, sifatning ma'no turlarini o'rgatishda o'qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o'tkaziladigan lug'at ishlari katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi.

Ushbu tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'ati ustida ishlash, zid ma'noli va ma'nodosh so'zlarni o'rgatish borasidagi masalari yoritib berildi.

Ona tili darslarida o'zbek tilining leksik tarkibini o'rgatish bolalarni keyingi bosqichlarda o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlarni egallash uchun poydevor yaratishga ham zamin hozirlaydi.

Ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha quyidagi *tavsiyalarni* bermoqchiman:

- qarama-qarshi ma'noli va ma'dosh so'zlar ustida ishlashdan o'qish darslarida ham foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashlari uchun yaxshi natija beradi;
- ona tili darslarida qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlar ustida ishlashda turli o'yinlardan foydalanishdan oquvchilar qiziqishini oshirishda qo'llash mumkin;
- o'quvchilar uchun lug'at daftar tuttirish ishlarini tashkil etish va lug'at turlari ustida ishlashni nazorat qilish;
- ta'limiy o'yinlardan har bir mavzularda foydalanish o'quvchilar nutqiy qobiliyatini yanada o'sishiga yordam beradi. “ona tilidan didaktik o'yinlar” hamda “ ta'lim texnologiyalaridan”, texnik vositalardan foydalanish tavsiya etish mumkin;
- zid ma'noli va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash jarayonida o'qish kitobida berilgan mavzularni misol tariqasida olib, mazmuniga mos multfilmlar bilan qahramonlar xususiyati ustida ishlash mumkin. Bu ish turi integratsiyalashgandarsdek o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, tahlil qilishni o'rgatadi.

Demak, 4-sinf ona tili darslarida qarama-qarshi ma'noli va ma'dosh so'zlar ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishda, lug'atini boyishida katta ahamiyat kasb etar ekan. Negaki, tilimizning lug'atidagi eng chiroyli, jozibador, asar yaratish mumkin bo'lgan so'zlar sifat so'z turkumiga mansubdir. Bu so'z turkumini yaxshi o'rgangan o'quvchilar kelajakda so'z sanatkorlari bo'lib yetishsalar neajab.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: „Sharq“, 1997.
2. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. — T.: 1997. 5-jild.
3. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyiik kelajakka ishonchdir. - T.: „O'zbekiston“, 2000.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma'naviyat”, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: „Sharq“, 1997.
6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // „Boshl. ta'l". jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
8. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti / boshlang'ich ta'lim uchun.-T.: 2010.
9. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
10. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi. –Toshkent, 2010.
11. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 1984.
12. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: „O'qituvchi“, 2004.
13. Ikramova R., G'ulomova X., Yuldosheva Sh., Shodmonkulova D. “Ona tili” 4-sinf. T. O'qituvchi. 2005.
14. Ikromova R, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: „O'qituvchi“, 2007.
15. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: „O'qituvchi“, 2008.

16. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). - T.: „Yangiyul poligraph service", 2007.
17. Qosimova K. Va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli / A. Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: O'zb. mil. ens., 2006-2008.
19. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.
22. G'ulomov A.. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — T.: „O'qituvchi", 1992.
23. Qosimova K.. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. - T.: 1964.
24. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil yetish. - T.: „Yangiyul poligraph Servitse", 2008.
25. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. - T.: „O'qituvchi", 2003.
26. Tolipov O', Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari. - T.: „Fan", 2006.

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti 4-kurs talabasi ABDUXOLIQOVA SABOXATning 5141600- Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "4-sinf ona tili darslarida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar ustida ishlash" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Boshlang'ich sinfda ona tili darslarining maqsadi o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, hozirjavoblik qobiliyatini shakllantirish bilan bir vaqtda tilning lug'at tarkibi va uning badiiy tasvirga boyligiga oid nazariy tushunchalarni ham o'rgatib borishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishda 4-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar, sifat va uning ma'no turlarini o'rgatish jarayonida zid va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari, sifatning o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli yasovshi qo'shimshalari ustida ishlash usullari hamda ularni o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullarini o'rgatish darslikdagi matnlar asosida atroflicha tahlil qilib berilgan.

Ish reja bo'yicha, mantiqiy fikrlar asosida, izchil bayon qilingan. Ish mazmunan chuqur yoritilgan, yozilish uslubi sodda va tushunarli.

Talaba ishning amaliy tomonlarini yoritishda Termiz shahar XTBga qarashli 13-maktabda olib borgan pedagogik amaliyot davridagi kuzatishlari va tajribalariga asosan xulosalar chiqargan.

Ishning ikkinchi bob ikkinchi rejasida berilgan sifat yasovshi qo'shimshalari ustida ishlash masalasi ko'proq nazariy jihatdan yoritilgan bo'lib, metodik tomonlariga ozroq e'tibor qaratilgan.

Ishda belgilab olingan maqsad va muammolar o'z yechimini topganligini inobatga olib, uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

F.A.Hayitova

